*Kuch – bilim va tafakkurda*

# Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 22-dekabr, chorshanba № 51 (9376)

Xalq ziyolilari gazetasi

**Baxtiyor SAIDOV,**
**Xalq ta'limi vaziri:**

# "Ma'rifat" gazetasi bugungi kunda ta'lim inqilobi bo'lib xizmat qilishi kerak

Buyuk mutafakkir, jadidlar yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiy "Gazeta millat tilining sofligi uchun kurashmog'i lozim", degan purhikmat g'oyani ilgari surgan. 90 yoshini nishonlayotgan "Ma'rifat" gazetasi aynan bobomiz aytgan o'gitga og'ishmay amal qilib kelganligini ta'lim sohasida mehnat qilgan va hozirda mehnat qilayotgan har bir vakili ta'kidlashi, shubhasiz.

Ma'naviy ozuqa olish, chin inson bo'lib yetishishda gazeta va kitob mutolaasining o'rni beqiyos. Mutolaa insonni komillik sari yetaklaydi, dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stiradi, savodini mustahkamlaydi.



Xalq ziyolilari, o'qituvchilarning yaqin ko'makdoshi "Ma'rifat" gazetasi bugungi kunda ta'lim inqilobi bo'lib xizmat qilishi kerak. Xalq ta'limi tizimini tubdan o'zgartirish, shu bilan birga o'zgartirish kiritishga astoydil bel bog'lashi zarur. Ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni barcha islohotlardan to'la xabardor etish va shu orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish "Ma'rifat" gazetasining asosiy shioriga aylanishi joiz. Shundagina bu inqilob xalq ta'limi tizimi xodimlari ehtiyojiga, orzu-umidlariga tayanib, kutilgan natijani beradi.

Sir emas, keyingi uch yuz yilda gazeta mutolaasi inson ongiga shu darajada o'rnashganki, u nasldan naslga zarur ma'naviy ozuqa sifatida o'tib bormoqda. Gazeta o'qish inson ongiga ijobiy ta'sir qiladi, insonning fikrlash qobiliyatini shakllantirib, uni teranlashtiradi. Bugungi zamonaviy axborot tizimi rivojlangan internet asrida esa gazetalarning, umuman olganda bosma nashrlarning ahamiyati yanada yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Xalq ziyolilari gazetasi, deya nom olgan otaxon nashr ham ta'lim tizimidagi nihoyatda dolzarb mavzularni ko'tarib chiqayotgan dadil, jasur gazetalardan hisoblanadi. 1931-yil 4-iyuldan chop etila boshlagan gazeta ayni vaqtda ham yurtimizdagi yetakchi matbuot nashri sifatida faoliyat olib bormoqda.

Gazeta sahifalarida yurtimizdagi eng fidoyi pedagoglar, namunali maktablar, sohadagi muammolar, tizimdagi islohotlar keng yoritilishi bilan o'qituvchilar qalbidan joy olmoqda. "O'qituvchi minbari", "Dolzarb mavzu", "Og'riq", "Ma'rifat" repetitori" kabi qiziqarli ruknlar – ona tili, matematika fanidan berilayotgan testlar va ularning tahlili esa yuqori sinf o'quvchilari uchun juda ham kerakli manba sifatida amaliy jihatdan ko'mak bermoqda.

Fursatdan foydalanib, gazetaning fidoyi jamoasini va ushbu nashr rivojiga hissa qo'shgan jurnalistlarni qo'shaloq bayram bilan qutlaymiz. Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy takliflar, tahliliy, tanqidiy va ilmiy-ommabop maqolalar, adabiy-badiiy asarlar bilan gazeta sahifalari yanada boyishini, jamoaning kelgusi faoliyatida ulkan zafarlar yor bo'lishini tilab qolamiz!




Ta'lim sifatini yaxshilashga o'qituvchilardan bo'lar-bo'lmas testlar olish yoki attestatsiyalar bilan emas, zamonaviy maktablar qurish, maktablarni oxirgi rusumdagi kompyuter texnologiyalari bilan jihozlash, yosh o'qituvchilarga metodik yordam bera oladigan bilimli uslubchilar bilan ta'minlish orqali erishiladi. Maktablarni har qanday tekshiruvlardan xoli qilish kerak. Men bilgan o'qituvchilar darsga shunchaki kirmaydi. Ta'limga pora evaziga yoki tanish-bilish orqali rahbarlik lavozimiga ishga joylashib olganlar vazifasidan olinsin. Rahbarlikka o'ta o'qimishli, bilimlilarni tanlov asosida qo'yish kerak.

**Hasanboy IMONQULOV**

Viloyat va tuman xalq ta'limi bo'limlari tugatilsin. U yerda ishlaydiganlar o'qituvchilarni o'zlariga bo'ysundirishga harakat qiladi. Ayniqsa, metodistlar o'z vazifalari nimadan iborat ekanini ham unutgan. Ulardan qachon metodik yordam olganimizni eslolmayman. Maktabga kelib baqir-chaqir qilib, hammani oyoqqa turg'izib ketadi. Buning o'rniga maktablarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, o'qituvchilarga chinakamiga metodik yordam ko'rsatadigan tizim tashkil etilsin. Vazirlikning yangi mutasaddilaridan mana shu masalani ham e'tibordan chetda qoldirmasligini so'rardim.

**Lola MIRHAKIMOVA**

42 yildan buyon ta'lim tizimida o'qituvchilik, metodistlik va direktorlik vazifalarida ishladim. Hozir o'qituvchiman. Hech qaysi vazifa oson emas, ta'limda asosiysi — bilim. Shunga aminmanki, yuqorida maktab mashaqqatini totganlar ishlasa, sizni yaxshi tushunisharkan. O'qituvchilik mashaqqatini yurakdan his qilish — rahbarlar uchun juda muhim. Ana shunda o'qituvchi mehnati g'oyat qadrlanardi. To'g'ri kelgan odam direktorlikka qo'yilar ekan, na natija, na rivojlanish bo'ladi.

**Qurbontosh ODILOVA**



**Shoir dardi – el-yurt dardi**

**2-3-betlar**




**Xalq ko'nglining kashshofi bir shoir!**

**4-5-betlar**



**"Ma'rifat" mangu yasha!**
**"Madaniy inqilob"dan ta'lim inqilobigacha**

**8-9-betlar**

Erkin Vohidov tavalludining 85 yilligiga

# Shoir dardi –

Ushbu maqolani to'g'ridan-to'g'ri Erkin Vohidov she'riyati, shoirning milliy she'riyatimiz ravnaqi yo'lidagi xizmatlari ta'rifidan boshlamoqchi edim. Ammo gapni uzoqroqdan boshlashga to'g'ri keldi, chunki busiz masala mohiyati tagiga yetish qiyin.

She'riyat davrning aks sadosi, degan qarash keng tarqalgan. Unda muayyan asos bor. Biroq chinakam she'riyat davrning aks sadosi bo'lishi bilan barobar, uning o'zi ham butun boshli o'ziga xos davr, badiiy olam yaratishga qodirdir. Bunday she'riyat odamlarning dilidagi, tili uchidagi gaplarni aytish, ko'ngil rozlarini ifodalash bilan cheklanmay, ko'pchilikning xayoliga kelmagan o'y-mushohadalar, fikr-tuyg'ular izhori orqali qalblarni zabt etishi, she'rxonlarning o'zi yashayotgan davr hodisalari va muhimi, o'zi, qalbi haqida bilgan-anglaganlarini, tasavvurlarini butunlay o'zgartirib yuborishi, binobarin, ko'ngillarga g'alayon solishi, hayotiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yana shunday mangu savol bugun ham kun tartibidan tushgani yo'q: she'r kim uchun yoziladi – shoirning o'zi uchunmi, xos kitobxon uchunmi yoki ko'pchilik – omma uchunmi? Bu uch xil qarash tarafdorlarining har qaysisini hurmat qilgan holda, shaxsan o'zim ana shu uch jihatni o'zida birlashtirgan she'riyatni yuksak san'at hodisasi, deb bilaman. Dalil-isbot uchun uzoqqa borishga hojat yo'q. XX asr yangi o'zbek milliy she'riyati tajribalari buning yorqin isbotidir.

Nihoyat, yana bir gap. Adabiyot fanida badiiy jarayon mohiyati va darajasini ko'proq epik asarlar orqali belgilash taomili ustun. Biroq tajribadan ayonki, kichik bir she'r ham yirik romanga teng ulkan missiyani ado etaverishi mumkin. Cho'lponning "Qalandar ishqi", "Yupanmoq istagi", "Ko'ngil", Oybekning "Na'matak", G'afur G'ulomning "Sog'inish", Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda", Usmon Nosirning "Yurak", Zulfiyaning "Bahor keldi seni so'roqlab" singari XX asr birinchi yarmi milliy she'riy tafakkur darajasini belgilovchi benazir maftunkor sirli-sehrli olam yaratgan sara she'rlari ahamiyati jihatidan "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Sarob", "Navoiy" kabi romanlardan aslo qolishmaydi. 20–50-yillar davomida o'zini el-yurtning ma'rifatli farzandi sanagan zot borki, bu asarlar ular qalbini zabt etgan, millatning bir emas, bir necha avlodi ayni shu asarlarda ilgari surilgan ezgu tuyg'ular, olijanob g'oyalar ruhida tarbiyalangan. Mash'um totalitar rejim, yagona mustabid mafkura hukmronligi zamonida millatning o'zligini, dilini, tilini, nafosat, haqiqat, adolat, erk va ozodlikka tashnalik mayllarini saqlab qolishda bu xil asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Qisqasi, ijodkorning dardi el-yurtning dardi darajasiga ko'tarilgandagina ana shunday yaratiqlar mangulikka dahldor ekanini milliy adabiyotimiz tajribasi yana bir karra tasdiqladi.

Ana shu qutlug' an'ana XX asr ikkinchi yarmida yangicha ko'rinishda davom etdi, o'tgan asrning 60-yillarida milliy she'riyat maydoniga kirib kelgan yangi avlod yalovbardorlari – Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va ularning o'nlab iste'dodli safdosh va izdoshlari qalamiga mansub noyob lirik rubobiy taronalarning el orasidagi dovrug'iga o'zimiz bevosita guvohmiz. Mana endi Erkin Vohidov hayoti, shaxsiyati, she'riyati bahsiga o'tsak bo'lar.

Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanida dunyoga keldi. Onasi Roziyaxon qishloq maktabida geografiyadan dars bergan, otasi Cho'yanboy Vohidov tarix muallimi, so'ng turli rahbarlik lavozimlarida ishlagan; zukko bilimdon, quvnoq, dilkash, so'zga chechan odam bo'lgan. Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida frontga ketib, og'ir yarador – xasta holda qaytadi, 1945-yili o'ttiz uch yoshida vafot etadi. Bir yildan so'ng onasi ham dunyodan o'tadi.



Erkin garchi ota-onasidan erta ayrilgan bo'lsa-da, Toshkentda ma'rifatli jigarlari qo'lida tarbiya topib, voyaga yetdi. Ota-ona vafotidan keyin u tarbiyalangan xonadon sohiblari Sohiboyevlar Toshkentning mo'tabar taniqli davlat va jamoat arboblari bo'lgan. Erkinjonning tog'alari Karimboy Sohiboyev adliya xodimi, respublika Oliy sudi kollegiyasi a'zosi, Rixsi Sohiboyev esa bir necha yillar Respublika Oliy Soveti Prezidiumining sekretari bo'lganlar. Qisqasi, Erkin Vohidov tabiati, taqdiridagi jamoat ishlariga moyillik, arboblik xislati otaona, yaqin jigargo'shalar qonidan o'tgan.

Sohiboyevlar xonadoni a'zolari adabiyotga, san'atga, umuman, ma'rifatga tashna odamlar edi, xonadonda teztez shoir va xonandalarning maroqli davralari bo'lib turardi. Erkin Vohidovdagi nafosatga, she'riyatga mehr va mayl shu xonadonda, ana shu davralarda shakllandi. Sohiboyevlar xonadonidagi davra qatnashchilari orasida Alixonto'ra Sog'uniy kabi islom ma'rifatining darg'alari ham bor edi. Erkin Vohidov tabiatidagi Sharq madaniyati va adabiyotiga chuqur ehtirom, sharqona odob-andisha, tavoze, bir chekasi, ana shu davra ishtirokchilari ta'sirida toblangan.

Keyinchalik yosh shoirga Milliy universitetda G'.Karimov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov kabi ulkan adabiyotshunoslar yaratgan jo'shqin adabiy muhitda tarbiya olish nasib etdi. Bundan ham muhimi, mamlakatni millatning gullari qoniga botirgan mustabid hukmdor tarix sahnasini tark etib, qisman erkinlik shabadalari esa boshlagan, ijodda qudratli yangi to'lqin harakatga kelgan bir pallada qo'liga qalam oldi; shu harakatning boshida turgan ulug' adib Abdulla Qahhorning nazariga tushdi. Ijoddagi ilk qadamlaridayoq o'z safdoshlari kabi odat tusiga kirgan "baxtli zamon"ni, partiyani, dohiylarni ulug'lovchi satrlarni emas, garchi biroz sodda, oddiy bo'lsada ko'nglini maftun etgan, samimiy tuyg'ularini qog'ozga to'ka boshladi. Uning yigirma uch yoshida chiqqan ilk she'rlar to'plami "Tong nafasi" milliy she'riyatimizga yangi nafas olib kirdi. Unga taqriz yozgan ustoz Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek, yosh shoir ilk mashqlarida ko'proq dunyoni endi kashf etayotgan, o'zining kashfiyotidan o'zi zavqlanib, quvonchidan boshqalarni xabardor etishga oshiqayotgan, hayot benihoya go'zal, noyob ne'mat ekanini tushunib kelayotgan murg'ak qalbning quvonchlari bor. Keyinroq shoir aql va his bahsiga o'tdi. Madhiya, faxriya, qasidachilik kayfiyatlariga berilgan onlari ham bo'ldi, romantik xayollar og'ushida ishqiy g'azallar bitdi. Shu asarlar qatorida beg'ubor quvnoq yumor, hazil-mutoyibalar bilan yo'g'rilgan she'rlar ham yaratdi; ayni paytda ko'ngil armonlarini, o'kinchlarini, xalqimizning og'ir va shonli kechmishini, tariximizning qora va nurli sahifalarini, urush keltirgan ofatlarini ham she'rlarga soldi, lekin baribir, nekbin ruh – hayot madhi, sevgi sururi, faxr-iftixor tuyg'usi ijodida yetakchilik qildi. Bu xususiyat 1969-yili chop etilgan "Yoshlik devoni" kitobida yorqin ko'rindi.

Bu kitob faqat Erkinning 60-yillar ijodi namunasi, o'sha yillardagi shoir kayfiyati, o'y-mushohadalari ifodasi bo'libgina qolmay, umuman milliy she'riyatimiz taraqqiyotidagi muayyan tamoyilning ko'rinishi sifatida ham qimmatlidir. Gap shundaki, adabiyotda vulgar sotsiologizm balosi hukmron bo'lgan kezlari hamma yoqni ijtimoiy-siyosiy mavzudagi tumtaroq she'rlar bosib ketgan, sevgi, shaxsiy-intim kechinmalar badnom etilgan, she'riyatdan badarg'a qilingan edi. 60-yillarga kelib ahvol o'zgara boshladi, inson shaxsiga, kishining xilma-xil kechinmalari, jumladan, an'anaviy sevgi taronalari uchun qisman yo'l ochildi. Shunisi xarakterliki, poeziyamizda sevgi motivlarining qayta hayoti an'anaviy shakl, ayniqsa, g'azalning jonlanishiga olib keldi. "Yoshlik devoni" shu jarayonning eng jiddiy hodisasi, shoirning ulkan ijodiy jasoratidir. Shoir Abdulla Oripov yozganiday, "mumtoz adabiyotimizning oltin eshiklari abadiy bekiladi deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasida birinchilardan bo'lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig' paydo bo'ldi". Ko'hna aruz vaznining yangi zamon she'ri uslubi, ohangiga yaqinlashtirish uchun uringan Cho'lpon, G'.G'ulom, Usmon Nosirlar an'anasini yuqori bosqichga ko'tardi. Erkin Vohidov g'azallari, shoirning o'z aruzi, o'z g'azali shakliga aylangani uchun ham milliy adabiyotimiz, she'riyatimiz rivojida beqiyos hodisa bo'ldi. Ularda biz faqat Erkinning o'ziga xos shaklini yuzaga keltirgan hissiy ohangini, qalb sadosini, yurak tebranishlarini, o'ylash- fikrlash yo'sinini ko'ramiz.

*Tun bilan yig'labdi bulbul*
*G'uncha hajri dog'ida.*
*Ko'z yoshi shabnam bo'lib*
*Qolmish uning yaprog'ida.*

Nihoyatda go'zal, mangulikka muhrlanib qolgan benazir holat, jarayonning bu qadar nafis, chiroyli, sirli-sehrli ohanglarga yo'g'rilgan ifodasini "Yoshlik devoni"dagina uchratish mumkin.

Faqat "Yoshlik devoni" g'azallari emas, shoirning 60-yillarda yaratgan boshqa janrlardagi sara asarlari ham el orasida nihoyatda mashhur bo'lib ketdi. Bevosita shoir shaxsiy hayoti, tarjimayi holi – fashizmga qarshi urush qurboni bo'lgan o'z otasi haqidagi "Nido" dostoni lirik qahramonining qalb sadosi, anduhlari, Abdulla Qahhor yozganidek, million-million kishilarning nidosi, urushga nafrati, urushda halok bo'lganlar xotirasiga ehtiromi kabi yangradi.

Tabiiyki, o'sha yillar shoir she'riyatining eng avj pallasi "O'zbegim" qasidasidir. Bu o'rinda qasidani maxsus sharhlab o'tirishga hojat yo'q: u haqda ko'p

# el-yurt dardi

yozildi. Asar darsliklardan joy olgan. Millatning sha'ni-g'ururi toptalgan, tarix darsliklarimizda xalqimizning shonli o'tmishi qora bo'yoqlar bilan bulg'angan, har tongda kuylanadigan davlat madhiyasi ulug' og'aga, partiyaga hamd-u sanolar bilan boshlanadigan zamonlarda kechmishning shonli sahifalarini ulug'lovchi "O'zbegim" qasidasi g'ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi. Shu tariqa "O'zbegim" 60-yillari birin-ketin chiqqan beshta she'rlar to'plami, "Nido", "Palatkada yozilgan doston"lardagi ijodiy izlanishlarning muayyan yakuni bo'ldi.

Yillar o'tgan sari Erkin ijodida fikrlar ufqi kengayib, his-tuyg'ular tobora serjilo bo'lib bordi. Shunga qaramay, shoirda erishgan yutuqlardan qoniqmaslik, o'zini yangilashga moyillik kayfiyati kundan-kun ortib bordi. Bu bir dard, armon bo'lib vujudini g'alayonga sola boshladi. Bu holat 70-yillar boshlarida bitilgan "Yo'qolgan she'r"da yaxshi ifodalangan: shoir o'z asriga mos, faqat millatning emas, butun olamning shavqini, dardini o'zida mujassam etadigan she'rlar izlaydi, shunday she'rlar yozishni orzu qiladi. Nihoyat, bu orzu-intilish, izlanishning samarasi 70–80-yillarda yaratilgan "Tirik sayyoralar", "Sharqiy qirg'oq", "Kuy avjida uzilmasin tor", "Yaxshidir achchiq haqiqat" kabi to'plamlaridan joy olgan she'rlarida, "Ruhlar isyoni", "Istanbul fojiasi" dostonlarida yaqqol ko'rindi. Zamin, zamon va inson tashvishlariga hamdardlik, oddiy kundalik hodisalarda katta insoniy muammolarni ko'ra bilish, ulardan umumbashariy ma'nolar qidirish, o'sha kezlari o'zini hayajonga solgan masalalarni dadil o'rtaga qo'yib, ularga javob izlash, odamlar e'tiborini jalb etish – bu davrdagi eng yaxshi doston va she'rlariga xos xususiyatlardir. Bu asarlardagi har bir so'z, har bir satrda insoniyat qismatidan bezovta qalb kechinmalari, zamon taqdiriga javobgarlik hissi bilan tepayotgan yurak hayajonlari lovullab turadi, ular dunyoga tiyrak ko'z bilan nazar solishga chaqiriq bo'lib yangraydi. "Inson", "Sharqiy qirg'oq", "Sirdaryo o'lani", "Arslon o'ynatuvchi", "Ruhlar isyoni" kabi o'tkir fuqarolik ruhi-nafasi bilan yo'g'rilgan doston va she'rlarni XX asr milliy she'riyatmizning o'ziga xos davr yaratgan nodir namunalaridan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

"Inson" qasidasi satrlari qatidagi iztirobga to'la o'y-mushohadalar silsilasiga bir qur nazar tashlaylik. She'r qasida ruhidagi inson madhiyasi bilan boshlanadi:

*Sobit-u sayyorada*
*Inson o'zing, inson o'zing.*
*Mulki olam ichra bir*
*Xoqon o'zing, sulton o'zing.*

Shoir ana shu xoqon, sulton sanalmish bugungi fan-texnika zamoni odami izmidagi yorug' dunyo nadur, degan savol qo'yadi-da, keskin va shafqatsiz ravishda "Koshonadur, vayronadur" deya javob qiladi. Shu satrlardan boshlab she'rda madhiya ohangi chekinadi, shoirning ham faxr-iftixor, ham afsus-nadomatlarga to'la armonli nolasi yangray boshlaydi; inson zotiga xos ziddiyatli ta'rif-tavsif davom etadi. Inson goh adolat, goh adovat qo'ynida, o'z dilining dargohida goh shayton, goh g'ilmon; jon borki qasdi jon, qotil ham, qurbon ham, hayot ummonida qatradek sarson ham, gardon ham shu insonning o'zi! Mash'ali fikrat ham, changali vahshat ham – shu zotning o'zi! Ona zamin taqdiri shu ulug' va ojiz zot – insonning o'z qo'li, ixtiyorida. Shoir insonni inson degan ulug' nomga munosib bo'lishi, farzandlik burchiga sodiq qolishi, zamin dardiga darmon, unga qalqon bo'lishini tilaydi. Shoir insonni jamiki ziddiyatlari, kuchli va ojiz tomonlari ila ta'rif etmasin, baribir uning imkoniyatlariga, dahosiga, istiqboliga ishonch bilan qaraydi, inson nomini hamisha o'kinch, armon aralash yoniq bir mehr bilan qalamga oladi.

1979-yili yozib tugatgan "Ruhlar isyoni" dostonida milliy istiqlol to'g'risida so'z ochish aslo mumkin bo'lmagan bir zamonda mustabid tuzum qatag'oni qurboni Fitratning "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari" asarlari izidan borib, dekoratsiyani Hind eliga ko'chirib, shoir Nazrul Islom timsoli orqali o'z ona yurtida erk, ozodlik yo'liga hayotini tikkan Qodiriy, Cho'lpon, Fitratlar qismatiga ishora etishga, rivoyat-u, hikoyatlar orqali shaxs erki, g'oyasini umuminsoniy miqyoslarda turib ifodalashga erishadi.

80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida bitilgan she'rlarini o'z ichiga oluvchi "Yaxshidir achchiq haqiqat" to'plamini o'sha tarixiy burilish davri shoir qalbining kardiogrammasi, deb atash mumkin. To'plamga xos bosh xususiyat undagi she'rlarda ruhiy erkinlikning to'la namoyon bo'lgandir. Bu nihoyatda muhim fazilat. Busiz chinakam badiiy kashfiyotlar dunyoga kelishi mumkin emas. Novatorlik, ijodiy originallik, uslubning o'ziga xosligi, shakliy topilmalar deymizmi – barchasining ibtidosi shu ruhiy erkinlikdan boshlanadi. Yetmish yil davomida milliy she'riyatimiz, ijodkorlarimiz hukmron mafkura, siyosat tazyiqida bo'lib keldi. Bu tazyiqdan chetda turishga, mustabid tuzum aqidalari qobig'ini yorib chiqishga dadil urinishlar ham bo'ldi. Biroq jasur, haqgo'y ijod ahli har qancha urinmasinlar, baribir, ularning qonida qandaydir hadik, Cho'lpon aytgan sustkashlik davom etdi, tutqunlik zug'umi o'z asoratini qoldirdi. Faqat istiqlol arafasiga kelib shoirlarimizda ruhiy erkinlik to'la namoyon bo'la boshladi. E.Vohidovning shu davr mahsuli sanalmish afsus-nadomatlar bilan bitilgan "Vatan umidi" she'rida shunday satrlar bor:

*Agarchi ismim Erkin,*
*Erki yo'q, bandi kishan bo'ldim.*
*Ko'zim bog'liq, dilim dog'liq,*
*Tilim yo'q, besuxan bo'ldim.*

U bor ovoz bilan "Bas, yetar yolg'on saodat, Yolg'on erk, yolg'on Vatan!" deya hayqiradi.

Erkinning istiqlol yillaridagi she'rlari toptalgan milliy qadriyatlarni tiklash, o'zini topish, o'zligini tanishdek mashaqqatli yo'l g'oyat sharafli ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayni shu yo'ldan borgan ijodkorgagina shafqatsiz haqiqat eshiklari ochiladi, bu yorug' dunyoning sir-u asrorlarini anglash, tevarak-atrofda yuz berayotgan, shitob bilan o'zgarib, yangilanayotgan tarixiy jarayonlarning, hayot jumboqlarining tub mohiyatiga yetish imkoni tug'iladi. Keyingi she'rlarida ko'pni ko'rgan, ulug' yosh bo'sag'asida turgan donishmand shoirning ayni bu yoshga xos holat-kayfiyatlari, o'y-mushohadalari, boy hayot tajribalari g'oyat yorqin namoyon bo'ldi. Agar u "Yoshlik devoni"da "Yoshligim, kel, kuyga to'lgan Qalbim oltin sozi bo'l, Men qo'shiq aytay to'lib, Bir lahza jo'r ovozi bo'l" deya sho'x-shodon kuylagan bo'lsa, endi keksa hazrat Navoiy kabi dangal "Keksalik kelgach nasibing Yo'lga boqib o'ltirish. Endi, manzil hech xarita – Ichra nomi yo'q diyor, Keksalik – ul mamlakatga Yo'l tadorigin ko'rish" deb yozadi. Ayni paytda yana ulug' Navoiy iboralari bilan aytganda, qarilik chog'da ham yor vaslidan ko'ngil uzolmaydi, "Men hayotda bor ekanman, O'ylasam, sen bor uchun, Ko'ksim ichra qalb urar Tun-kun o'zingga zor uchun... To jahonda bor ekanman, Borlig'im sen yor uchun" singari olovli misralar tizadi. Qo'l qovushtirib o'tirmay el-yurtning bugungi muammolari ustida bosh qotirishda davom etadi, millat mustaqillikka erishib o'z kuch-qudrati, aql-zakovatini to'la namoyon etish davri kelganida, uning parvozi yo'lidagi to'g'anoqlar, yuz yil burun jadid bobolarimizni dog'da qoldirgan qoloq udumlar ustida alamli o'ylarga toladi, jumladan, "Nega yapon yuz yil yashar..." she'rida bu haqli savolga javoban kinoya-kesatiqlar ila "Chunki yapon bizdek qorong'i Sahar turib oshga bormaydi. Motamida u obro' uchun Elni chorlab ziyofat qurmas. Bayramida bel bog'lab uch kun Shamdek qotib ko'chada turmas. Garchi bizdan yuz bor farovon, Garchi bizdan yuz karra to'qdir. To'y xarjida yuzta boy yapon Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir", deydi o'kinch bilan... Bugina emas, mumtoz shoirlarimiz kabi Olloh oldida erkalik qilib mana bunday isyonkorona mangu savollarni o'rtaga qo'yadi:

*Dunyo, sening bizga munis*
*ma'voliging qani?*
*Yorug' kuning kamdir,*
*yorug' dunyoliging qani?*
*Oqilga g'am, johilga zar –*
*bergan o'zing esang,*
*Pavardigor, odillikda*
*tanholiging qani?*

Mana endi xulosa chiqarilsa bo'lar. Erkin Vohidov she'riyati, aniqrog'i, uning sara she'rlari birinchi galda shoirning o'zi uchun eng ardoqli, dil qa'ridan sizib otilib chiqqan shaxsiy kechinma-tuyg'ular hosilasidir. Ayni paytda ana shu shaxsiy kechinmalar ko'pchilik odamlar uchun ham qadrli va tushunarlidir. Erkinning yozganlari qog'ozda qolib ketadigan satrlar emas, ular tillardan dillarga ko'chib u yerda muqim joy olgan yetuk she'riyatdir. Shoir she'rlari sirtdan sodda, yetti yoshdan yetmishgacha barcha uchun birdek tushunarli tuyilsa-da, ulardagi tagma'noga yetish, ularni uqish oson emas. Ular "xos odamlar"ning teran tahlil, o'y-mushohadalari, xilma-xil talqinlari uchun boy ozuqa beradi. "O'zbegim", "Inson" qasidalarini, "Ruhlar isyoni" dostonini anglab yetish uchun qanchalar bilim, boy hayotiy va adabiy tajriba kerakligi ayon. Bir ma'rifiy davrada donishmand alloma Alixonto'ra Sog'uniy "Yoshlik devoni"dagi "Uzum" radifli g'azalni yarim soat davomida baytma-bayt yod aytib ularni birma-bir sharhlab, oddiy tuyilgan satrlar bag'ridagi biz xayolga keltirolmagan turli ma'nolarni batafsil tushuntirib bergan, oxirgi "Ey dilorom, senga Erkin Tutdi maydek she'rini, Dil xumida necha yil Qon bo'ldi bu devon – uzum" satrlarini "shoh bayt" deb atagan, uni hazrat Navoiyning mashhur "Ashraqat" g'azalidagi satrlarga qiyos etgan edilar.

Afsus, adabiyotshunosligimizda Erkin she'rlarining bunaqa teran, sinchkov tahlillari amalga oshirilgan emas.

Erkin Vohidov ijodiy faoliyatini jamoat ishlari bilan qo'shib olib bordi. Ayniqsa, atoqli va ardoqli shoirimiz mustaqillik yillari Oliy Kengash, Oliy Majlis deputati, Senat a'zosi sifatida mas'ul lavozimlarda ishlagan kezlari ulkan davlat arbobi sifatida ham tanildi. "Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing ham kerakligingni sezish – bu katta baxt,– deydi shoir. – Shuning uchun ham jamoat mehnatidan hech qachon qochgan emasman. Qaynoq hayot ichida yashab, ishlab o'rganganman". U benazir she'r-u dostonlari bilan barobar Mustaqilligimizning bosh me'mori prezidentimiz yonida turib istiqlol ideallarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi xayrli xizmatlari bilan ham millatimiz uchun ardoqlidir. Erkin Vohidov Davlat mukofoti laureati, "Xalq shoiri", "O'zbekiston Qahramoni"dek yuksak mukofot-u unvonlarga har jihatdan munosib ijodkor edi.

Shoir tavalludining 80 yilligi arafasida uning el-yurt dardi bilan yo'g'rilgan 8 jildlik asarlari nashrga tayyorlandi, ayniqsa filolog-murabbiylar uchun g'oyat ardoqli "So'z latofati" kitobi, shuningdek, "To quyosh sochkayki nur: Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida" deb nomlangan salmoqdor majmua chop etildi. Afsus, ardoqli shoirimiz qutlug' yoshi to'yiga yetib kelolmadi, 2016-yil 30-may kuni to'yiga atigi 7 oy qolganda 79 yoshida vafot etdi. Bu o'zbek adabiyoti va madaniyati uchun og'ir judolik bo'ldi. Siz-u bizga taskin beradigan jihati shuki, sevimli shoirimiz endi jo'shqin, ibratli hayot saboqlari va beqiyos ijodiy merosi bilan jonajon xalqi qalbida mangu yashayveradi.

Umarali NORMATOV,
O'zbekiston Respublikasi fan arbobi,
filologiya fanlari doktori, professor

Talqin

# Xalq koʻnglining

1995-yilning kuzi. Oktabr oyining oxirlari. Kuzni kuzatib sekin qadamlar bilan qishga kirib borayotgandik. Institutdagi oxirgi yilim. Shu yilni tugatib, oʻqishni tamomlab ish hayotimni boshlayotgandim. Ustozlar ham tahsil davrimizning soʻng pallasiga kelganimizni fahmlagan, shuning uchun ular ham vaqt topdi deguncha bizdan nima kutayotganlarini qayta-qayta taʼkidlardilar.

Adabiyotga bogʻliq darslarimizda nafaqat Turkiya shoir va yozuvchilarini, balki Turkiston hududining adiblarini ham oʻrganar, ularning asarlarini oʻqib borar edik. Ustozlardan toʻgʻridan-toʻgʻri bu hududni, bu yerdagi Ozarboyjon, Qrim, Qozon, Turkman, Oʻzbek, Qirgʻiz, Qozoq adabiyotlarining rivojlanish bosqichlarini tinglar, har darsimizda shu oʻlkalarni kezib, maʼrifat yoʻlida kurashganlar bilan birga yoʻlga chiqqandek boʻlar edik. Bu yerdagi odamlar bilan birga yigʻlar, birga kulardik. Bilhissa, bu adabiyot vakillari asarlarini oʻqigan sari Turkistonda adabiyot anʼanasining nechogʻlik kuchli ekanligini, oʻlka adiblarining tildan ustalik bilan foydalanishlarini koʻrgan sari sevinamiz. Darslarimizdan birining oxirgi daqiqalarida oʻqituvchimiz sinf taxtasiga yozib ishtiyoq bilan sheʼr oʻqib berdi. Soʻng keyingi darsimizda ushbu sheʼrni yozgan shoir haqida gaplashishimizni va u haqda qoʻshimcha maʼlumotlarni izlab topishimizni, agar sheʼrlarini topish imkoni boʻlsa, ularni ham darsga olib kelishimizni aytdi. Sinf taxtasiga yozilgan misralarning hammasi ham meni mast qilsa-da, shu misralar adabiyotga, asosan, sheʼrga qiziqishi boʻlgan mendek talabani yana-da oʻziga tortgan edi:

*Yellar, bir daqiqa toʻxtang esishdan,*
*Sernavo bulbullar, sayramang biroz.*
*Karbalo dashtida yayov kezishdan*
*Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.*
*Dengiz toʻlqinlaring urma qirgʻoqqa,*
*Shoir oʻylariga bermagil xalal.*
*Ustoz yuragida sheʼr tugʻilmoqda,*
*Dunyoga kelmoqda bir munis gʻazal.*

Keyingi darsgacha kutubxonalarda bu matn muallifi boʻlgan Erkin Vohidov haqida maʼlumot izladim. Uning hayoti, asarlari va ijodi haqida maʼlumotlar toʻpladim. Biroq men topa olgan maʼlumotlar yetarli emas edi: Bayram Oʻroq ismli tadqiqotchi tayyorlagan kitobda Vohidovning hayoti va asarlari haqida maʼlumotlar va sheʼrlaridan namunalar… Yavuz Akpinar tayyorlagan Vohidovning qisqa biografiyasi. Yana xuddi shu muallifning har misrasini turk tiliga oʻgirib qaytadan jon bergan "Oʻzbegim" qasidasi va uning bir nechta sheʼri…

Keyingi hafta Qiyoslamali adabiyot darsimizga oʻqituvchimiz ikki mehmon bilan keldi. Ularni bizga tanishtirdi. Mehmonlarning ikkalasi ham Oʻzbekistondan kelgan ilmiy xodimlar edi. Ulardan biri darsimizda qirq daqiqacha hazrati Mir Alisher Navoiy haqida soʻzladi. Alisher Navoiyning tilimiz mavqeyi va nufuzini saqlab qolish uchun saʼy-harakatlari, nafaqat oʻzbek, jahon madaniyati xazinasining boyishiga qoʻshgan hissasi haqida hikoyalar aytib berdi. Va yana Navoiyning faqatgina oʻzbeklarga emas, butun Turkiston hududiga ham yoʻnalish bergan ziyoli ekanligi haqida toʻxtalib, oʻzbek adabiyotining 1930-yillargacha boʻlgan umumiy xususiyatlarini sanab oʻtdi.

Butun sinf, yaʼni yetmish besh talaba mehmonimiz aytgan har bir soʻzni diqqat bilan tinglar, u aytgan har gapni yodimizga mustahkamlab olar edi. Mehmonimiz soʻzni Choʻlponning "Goʻzal" sheʼrini oʻqib yakunladi. Ikkinchi mehmon soʻzga chiqdi va maʼruzasini boshladi. U asosan Oʻzbekistonning ozodlikka erishish yoʻlidagi kurashi, bu jarayondagi ijtimoiy-siyosiy voqealar, oʻzbeklarning oʻzligini saqlab qolish uchun madaniyatini yashatish yoʻlidagi kurashlari va Oʻzbekistonda adabiyotga berilgan eʼtibor haqida gapirib berdi.

Xususan, milliy va maʼnaviy qadriyatlarni asrash, mustaqillikning qadriga yetish, kuchli davlat ogoh farzandlar bilangina mavjud boʻlishi haqida Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti hurmatli Islom Karimovning xizmatlari haqida toʻlqinlanib soʻzladi. U keyinroq zamonaviy oʻzbek shoirlari haqida maʼlumot berib, oʻzbeklar yoddan aytishni faxr deb biladigan "Oʻzbegim" qasidasini aytib berdi. Sheʼrning ohangrabosi bilan birga iftixor tuygʻusi joʻsh urib turishi sinfni toʻldirib oʻtirgan yetmish besh talabaning butun vujudi bilan sheʼrni tinglashi, sheʼr tugagandan soʻng mehmonimizni tik turib olqishlashi orqali namoyon boʻlgan edi. Dars tugagan vaqtda men shoirlik qoni joʻshib turgan, ham mumtoz, ham zamonaviy xarakterlarga ega yangi shoir bilan tanishgan edim.

Boshqacha qilib aytganda, qanchalik gʻoyibona boʻlsa-da, Erkin Vohidov bilan boʻlgan ilk tanishuvim edi.

* * *

2002-yil… Koʻklam fasli edi. Aprel oyi… Aspiranturada darslarni tugatib, imtihonlarni topshirganimga ikki oy boʻlgan edi. Aspirantlik dissertatsiyasi uchun mavzu tanlab yurgan vaqtlarim. Oʻzbek adabiyotining zabardast ijodkori haqida ilmiy ish qilishni maqsad qilib qoʻygandim. Choʻlponshunos Husayn Oʻzbay bilan maslahatlashib, ikki ijodkor oʻrtasida qarorsiz qoldim. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov… Biri oʻzbeklarning dostonini yozgan shoir… Ikkinchisi Oʻzbekiston milliy madhiyasi muallifi…

Fikr-mulohazasini olish uchun Ahmet B.Erjilasunga murojaat qildim. Gaplarimni eshitib kulimsiraydi ustoz… Tabassum bilan: "Qiyin tanlov… Qay birida toʻxtalishni bilmay turibsan, shundaymi?" – dedi. – "Xoʻsh. Ikkisining ham ijodi bilan tanishib chiqdingmi? Har ikkisi haqida ham maʼlumotga egasan. Qaysi biri zamonaviy shoir seningcha?" Shunday javob qildim: "Ikkalasi ham. – Qay birining sheʼri koʻproq? Mavzu rang-barangligiga koʻra qaysinisi farq qiladi? Yana oʻsha javob... Ustoz bir qancha payt tildan foydalanish sanʼatini shoirlar yaratishini, oʻzbek adabiyoti haqidagi oʻylari, oʻzbek shoirlarining Turkiyada tanitilishi va ular haqida qilinadigan ilmiy ishlarning dolzarbligi haqida soʻzlab ketdi. Keyin esa ilmiy ish mavzusi uchun qaror berolmayotgan shoirlari ijodidan esingda qolgani bormi, deb soʻradi.

Men esa:

*Sobit-u sayyorada*
*Inson oʻzing, inson oʻzing.*
*Mulki olam ichra bir*
*Xoqon oʻzing, sulton oʻzing.*

*Sobit oʻz maʼvosida,*
*Sayyor fazo dunyosida,*
*Koinot sahrosida*
*Karvon oʻzing, sarbon oʻzing.*

*Bu yorugʻ dunyo nadur?*
*Koshonadur, vayronadur,*
*Senga mehmonxonadur,*
*Mehmon oʻzing, mezbon oʻzing.*

*Bunda oq birla qaro,*
*Zulmat, ziyo, shoh-u gado,*
*Jang qilurlar doimo,*
*Ul yon oʻzing, bul yon oʻzing.*

*Goh adolat bogʻida,*
*Piri adovat gohida,*
*Oʻz diling dargohida*
*Shayton oʻzing, gʻilmon oʻzing.*

misralarini yoddan oʻqiyman. Bu misralar Erkin Vohidovning "Inson" nomli sheʼridan esimda qolgan parchasi ekanligini aytganimda, ustoz "Savash, oʻzing uncha tushunib yetmabsan-u, lekin zehningda oʻrganmoqchi boʻlgan shoirni tanlab boʻlibsan: Erkin Vohidov. Uning hamma asarlarini izlab top, oʻzi bilan bogʻlan. Hamma yozgan asarini oʻqib chiq. Shoir haqida yozilgan maqolalarni qidir. Yozganlarini tahlil qil… Erkin Vohidov kim ekan? Qanday muhitda oʻsgan? Asarlarida nima haqida yozadi? Uning har bitta qirrasigacha qanday ijodkor ekanligini oʻrgan va bizga koʻrsat, tanit" – dedi.

Shundan keyin ishga kirishib ketdim.

2003-yildan 2007-yilgacha davom etgan deyarli toʻrt yillik ish jarayoni. Bu davr men uchun bir oʻzbek ziyolisi, shoirini, munaqqidini oʻrganish jarayoni.

Erkin Vohidov haqida aspirantlik ishi qilayotgan vaqtimda oldimga qoʻygan maqsadlarim bor edi.

Bular – sheʼr va shoir vazifasini jamiyatni uygʻotish va uning rivojlanishiga hissa qoʻshish, deb biluvchi va bu yoʻlda sheʼrlar yozgan Erkin Vohidovni Turkiyaga tanitish; zamonaviy oʻzbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri boʻlgan Vohidovning nazmiy asarlaridan xulosa chiqargan holda sheʼr dunyosi va uslubiy xususiyatlarini ochib berish edi. Bularni oʻrgangan holda asarlarining oʻziga xosliklari, yaʼni shoir soʻzlarni tejamkorlik bilan sarflashi, uning fikr va tasavvurining sheʼriyatida aks etish shakli va uning sheʼrlaridagi til bilan bogʻliq boshqa sanʼat unsurlarini qayd etish edi.

"Erkin Vohidov sheʼriyati boʻyicha til va uslubiyat tadqiqi" nomli aspirantlik ishimning asosiy materiali ijodkorning "Ishq savdosi", "Sheʼr dunyosi", "Umrim daryosi" nomli asarlarida mujassamlashgan 422 ta sheʼrdan iborat edi. Ilmiy ishning kirish qismida Erkin Vohidovning qaysi adabiy muhitdan ilhomlanganligini yoritib berdim. "I boʻlim"ida Vohidovning hayoti haqida maʼlumot berib oʻtib, uning asarlarini "Sheʼr kitoblari", "Nasriy asarlar", "Dostonlar", "Teatr asarlari" va "Tarjimalari" sarlavhalari bilan joylashtirdim. Uning 24 ta sheʼr kitobida mumtoz nazm birliklari va mumtoz nazm birliklaridan tashqari farqli va tartibsiz miqdordagi misralar bilan nazm qilingan sheʼrlari oʻrin olgan edi. Adabiy tanqid va suhbatlardan tashkil topgan nasriy asarlari uning fikriy yetuk boʻlishidagi bosqichlarni aks ettirmoqda edi.

Ilmiy ishimning tadqiq qismini tashkil qiluvchi "II boʻlim"ida Erkin Vohidovning ilmiy ishimning asosini shakllantirgan 422 sheʼrini sheʼriy tarkibi, nazm shakli, vazn, til va uslub jihatlaridan oʻrganib chiqdim. Ilmiy ishning "III boʻlim"ida Vohidovning mazkur asarlaridagi sheʼrlarining transkripsiyali shakllari, "IV boʻlim"ida esa bu matnlarning turk tilidagi tarjimasiga oʻrin ajratdim.

Ilmiy ishimni himoya qilayotgan paytim hayʼat aʼzolarining "Bir shoir sifatida Erkin Vohidov qanday xususiyatlarga ega? Nimalarni koʻrib chiqding?" degan savollariga shunday degandim:

"Zamonaviy oʻzbek sheʼriyatining muhim vakillaridan biri boʻlgan Erkin Vohidov, mumtoz sheʼriyat anʼanasiga sodiq qolib yozgan sheʼrlaridan tashkil topgan "Yoshlik devoni"; insonning ruhiyati va oʻylarini mushohada qilishga majbur qiladigan "Tirik sayyoralar", "Sharqiy qirgʻoq", "Yaxshidir achchiq haqiqat" nomli kitoblari; Ikkinchi jahon urushi olib kelgan kulfat va azoblarni aks ettiruvchi "Nido" dostoni, bengaliyalik inqilobchi shoir Nazrul Islomning hayoti va va fojiaviy xotimasiga bogʻliq holda jasorat, fidokorlik, milliy burch va insonlik kabi xususiyatlarni tasvirlovchi "Ruhlar isyoni" nomli dostoni, toʻgʻrilik va egrilik, adolat va adolatsizlik, samimiyat va soxtalik oʻylaridan kelib chiqqan holda hayotning shafqatsiz yuzini koʻrsatib beruvchi "Istanbul fojiasi" nomli nazmiy pyesasi, hajviy unsurlar bilan bezatilgan "Donish qishloq latifalari" nomli sheʼrlar toʻplami, "Oltin devor" komediyasi va tarjimalari bilan oʻzbeklarning adabiy va madaniy hayotiga koʻzgu tutgan hamda oʻzbeklarga yoʻl-yoʻriq koʻrsatgan ijodkordir".

1950-yillarda sheʼrlari bosila boshlagan va 1960-yillarda shoir sifatida tanilgan Erkin Vohidov asarlarida oʻzi va jamiyatni qiynaydigan muammolarni oʻziga xos uslubda tarannum qilgan. Erkin Vohidov millatning dardlarini, xalqiga bosqinchilik siyosatini yuritgan kuchlarning beshafqatligi, adolatsizligidan norozi ekanligini hech ikkilanmasdan ifoda etgan.

Sheʼrini oʻzining quroli deb biluvchi Vohidov, millati oldidagi vazifa va majburiyatlarini xoʻb oʻylagandir. Shoirlikni "jondan voz kechish" deb baholagan Erkin Vohidovning fikricha, shoir insoniyatning yer yuzida boshidan kechirgan hamma voqealarga javobgar kishidir. Uningcha, "Shoirning dardi – xalqning dardidir". Shoir "har soʻzi xalqning ovozi va dardini ifoda etsagina" baxtiyor boʻlishini aytib oʻtadi.

Erkin Vohidovning *"Ishq savdosi", "Sheʼr dunyosi va umrim daryosi"* nomli kitoblaridagi sheʼrlarida bayt, toʻrtlik, beshlik, oltilik, sakkizlik va oʻnlik nazm birliklari bilan birga mumtoz nazm birliklarining ichiga kirmaydigan sheʼrlari ham bor. Nazmning bayt birligida 122 ta sheʼr yozgan Erkin Vohidov, bu asarlarning katta qismida misralarni sindirish yoʻli bilan yangilik qilishga harakat qilgan. Shoir oddiy bayt shaklida 18 siniq misralardan tashkil topgan bayt shaklida 104 sheʼr yozgan. Bu sheʼrlarning miqdorini qiyoslaydigan boʻlsak, shoir nazm birligi nuqtayi nazaridan yangi formalarni tanlaydi. Toʻrtlik nazm birligida 191 ta sheʼr yozgan Erkin Vohidov,

# kashshofi bir shoir!

bulardan bir qismida an'anaviy she'riyatda ishlatilgan shakllarni afzal ko'rgani holda, bir qismida to'rtliklardagi qofiya sistemasini asos etib yangi shakllar yaratib ko'rgan. Buni esa to'rtliklarni tashkil qiluvchi misralarni sindirib amalga oshirgan. Bu shaklda sindirib yozgan misralarida odmilikdan ko'ra ko'proq sistema izidan borgan shoir, siniq misralarni asosan bosh vazn sifatida tanlagan hijo vazniga ko'ra tartiblaydi. Bu jarayonda misralarni hijo qolipining tanaffuslariga ko'ra sindiradi, bu vaznda an'anani chetlab o'tib yangi shakllar qidirsa ham, bir tomondan orqa planda qolgandek bo'lsa-da, an'anaviy yo'lni ham davom ettiradi.

Vohidov to'rtlik nazm birligi bilan yozgan 191 she'rining 113 tasida to'g'ridan-to'g'ri to'rtlik vaznini asos olgani holda, 78 tasini siniq misralar bilan tuzgan. Shoirning beshlik vaznida yozgan she'rlarining soni 13 tadir. Ularning o'ntasi beshlik nazm shakli asosida bo'lib, uchtasi beshlik nazm shaklida yozilishiga qaramasdan siniq misralardan tashkil topgan. Oltilik nazm shakli bilan uchta she'r yozgan Vohidov, bulardan bittasini aruz vaznida, qolgan ikkitasini esa hijo vaznida yozgan. Bu she'rlardan to'rttasi to'g'ridan-to'g'ri sakkizlik nazm shaklida yozilgan, biroq qolganlardan bittasi "11 sakkizlik+1 ta to'qqizlik", ikkinchisi esa "8 sakkizlik+2 ta to'rtlik" shaklida tuzilgan. Vohidov o'nlik nazm shaklda to'rtta she'r yozgan. She'rlarining bir qismini esa turli va tartibsiz miqdordagi misralardan tuzgan. Mazkur she'rlardan 19 tasi har xil o'lchamdagi misralar bilan bir butun holda tuzilgan bo'lib, 29 tasi tartibsiz miqdordagi misralardan iborat.

She'rlarida ham hijo, ham aruz vaznini ishlatgan Erkin Vohidov ba'zan biron vaznga bog'liq bo'lmagan holda sarbast she'rlar yozgan. She'rlarining bir qismida bir tomondan aruz vazni va mumtoz she'riyatning nazmiy shakllari ko'zga tashlanadi, boshqa tomondan esa she'rlariga kiritgan yangiliklar diqqatga sazovordir. Shu bilan birga hijo vazni bilan yozilgan she'rlarining bir qismida mumtoz she'riyatdan ilhom olgan, bir qismida esa foydalangan hijo qolipining tanaffuslariga mos holda misralarni sindirish yo'li bilan yangi shakllar tuzishga harakat qilgan.

Erkin Vohidov she'rlarining 127 tasi aruz vaznida. Bular mumtoz adabiyotda eng ko'p ishlatilgan bahrlardan "bahri hazaj", "bahri ramal" bilan, kam ishlatilgan bahrlardan biri "bahri muzori" va "bahri munsarih"dir.

She'rlarida ko'proq hijo vaznidan foydalangan Erkin Vohidovning bu vaznda yozgan she'rlari 289 ta. Oltilik hijo vaznidan o'n beshlik hijo vaznigacha har xil vaznlardan foydalangan shoir, ba'zi she'rlarida esa ikkita alohida vazndan birgalikda foydalangan. Shoir shu yo'l bilan toq misralarda boshqacha, juft misralarda boshqacha hijo qolipidan foydalanib ohangdorligini ta'minlagan. Bu she'rlarida toq misralarning soni bilan juft misralarning soni bir xil. Erkin Vohidov hijoning 11 lik qolipidan boshqa qoliplarga nisbatan ko'proq foydalangan.

Erkin Vohidov she'rlarining katta qismida "lirik tuyg'u va ifoda uslubi" namoyon bo'ladi. Shoir bu ilmiy ishning asosini tashkil qiluvchi 422 she'ridan 62 tasida muhabbat haqidagi tuyg'u va o'ylarini berib boradi. Muhabbat va u bilan bog'liq tomonlarini hamma so'zlardan ustun qo'yuvchi Erkin Vohidov oshiq va mahbubasini she'rlarida ifoda etayotganda mumtoz she'riyatda mavjud bo'lgan hoshiya ichida jamlaydi.

Vohidov do'stlik, tavoze, samimiyat, to'g'riso'zlik, mardlik kabi mavzularda ijod qilgan. Do'st Vohidovning she'rlarida muhim o'rin tutadi. U do'stlik haqidagi she'rlarida sadoqat, salomlashishning ahamiyati, qarindoshlik, suhbat istagi, muammolarni bo'lishish, birlik, hamkorlik, hol-ahvol so'rash, yaxshilik va xiyonat mavzulariga keng joy ajratgan.

Ko'p bo'lmasa ham ayriliq va chorasizlikdan kelib chiqqan pessimistik ruhda yozgan she'rlari ham bordir. Bu she'rlarida Vohidovning ba'zi ijtimoiy she'rlarida kuzatiluvchi umumiy ko'rinishdan farq qiluvchi ruhiyati ko'zga tashlanadi. Uning bu holi o'tkinchi tushkunlik paytlari vujudga kelgan pessimistik holdir.

Erkin Vohidov she'rlarida vatan mavzusiga keng joy ajratadi. Uning she'rlarida Vatan oddiy bir tuproq parchasi emas. Hamma narsadan oldin Vatan – uning ustida yashovchi xalq yaratgan til, tarix, urf-odat axloq qoidalaridan tashkil topgan madaniyati, ruhi bilan Vatandir. Shoir qishloq xo'jaligi asosiy o'rin tutuvchi O'zbekistonda paxta yetishtirish haqida she'rlar yozgan. Bu sohada ishlaydigan odamlarning hayotini asarlarida tarannum qiladi. Bu she'rlarida bir ishni amalga oshirishga qodir bo'lish, peshona teri bilan kun kechirishning ahamiyati, g'ayrat, muvaffaqiyat, imkoniyatlarni ishga solish, mehnatning taqdirlanishi va paxta yetishtirish haqidagi mavzularni yoritib bergan.

Vohidovning fikricha, inson dunyoni go'zallashtirish va obodonlashtirish uchun yaratilgan. Shuning uchun insoniyat tinmasdan buni amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda. Bu shijoati natijasida dunyo kundan kunga chiroy ochib, shu ishi natijasida insoniyat baxtiyor bo'ladi.

Erkin Vohidov she'rlarining muhim qismida sho'ro mafkurasi, jamiyatdagi buzilishlar mavzusi aks etadi. Bu she'rlarning soni 65 ta. Ularda sobiq sho'ro tuzumining dinga qarshi harakatlari, qurolsizlantirish g'oyasi ostida manfaatparastlik qilgan inson tipi tanqid ostiga olinadi.

Erkin Vohidov so'z, gap va misrada yangi tuyg'u va hayajonga parallel holda yangiliklar yaratgan. Sodda til va samimiy hislarga mumtoz va xalq she'riyati an'anasi yo'nalishida ijod qilish barobarida yangi shakllarni yaratishni sinab ko'rgan. Shoir o'zbek she'riyatining an'naviy uslub, motiv va ramzlarining mumtoz she'riyatdagi qolipidan foydalanish bilan bir qatorda bularni davrga moslashtirib ishlatgan. Vohidov mumtoz she'riyatdagi shakl va mazmunlarni olib tashlash tarafdori emas. Bil'aks, shoir o'tmish bilan bugungi kun munosabatlarini yangidan shakllantirishni maqsad qilgan holda, ham mumtoz davr asarlaridagi xususlarni, ham mumtoz she'riyatning, ham xalq tilining rangi bilan yangidan chizgan. U har so'zning eng nozik, eng go'zal tomonlaridan foydalanishga harakat qilgan, hayotning hamma qarshiliklariga, jamiyatdagi to'polonlarga, bo'ron, kulfat va qiyinchiliklarga o'ziga xos reaksiya ko'rsatadi.

Erkin Vohidovning she'riyatga kiritgan yangiliklardan eng ahamiyatga sazovor bo'lgani leksikologiya sohasidagisidir. Shoir o'zbek tiliga o'zlashtirilgan sodda, keng foydalaniluvchi so'zlarni tanlash barobarida mumtoz she'riyat an'anasida foydalanilgan asosiy so'zlardan ham mahorat bilan foydalanadi. Shu bilan birga Vohidov xalq shevalaridan va folklorik til materiallaridan ham foydalangan holda tabiiy, jonli va sodda uslub namoyon qiladi.

Erkin Vohidov ijtimoiy va siyosiy voqealarga bo'lgan munosabatini bildirish chog'ida zid ma'noli so'zlar va ifoda shakllaridan keng ko'lamda foydalangan. Uning she'rlarida hayajon va majoziy ifoda shakllari mo'l bo'lganligi uchun leksikologik jihatdan ot so'z turkumi markazda turadi. Ba'zan o'git beruvchi, ba'zan so'roqqa tutguvchi, ba'zan voqealarga chorasiz qolguvchi, ba'zan duch kelgan muammo va qiyinchiliklariga yechimni insonning ruh dunyosining yangidan shakllantirilishida qidirgan asabiy va baland bosimdagi tazodlarga to'la misralari Vohidovning poetikasini belgilab beradi.

Erkin Vohidov she'rlarida samimiy tuyg'u, fikr, hayajon va xayollarini yanada chiroyli holatda ifoda qiladi. Asarlaridagi majoz, tashbeh va istioralar, shoir hayajoni darajasini ko'rsatuvchi xitob va nidolar shoirning uslubini belgilovchi omillardir. Vohidov bular bilan bir qatorda she'rlarida ritmik va garmonik parchalarga keng ko'lamda joy ajratgan. Tovush, qo'shimcha, so'z, so'z turkumi, gap, misra, bo'lim holidagi ifoda takrorlari, deyarli hamma she'rlarida uchraydi. U sodda, ochiq va ravon uslubini tuyg'u va fikrlariga ko'ra farq qiluvchi gap va misralarda namoyon etadi.

Vohidov she'rlarida xalq ko'rgan qiyinchiliklarga qaramasdan "optimist" ruhiyatni saqlab qoladi. Barcha bo'lib o'tgan voqealarga qaramasdan umidini muhofaza qilgan shoir murojaat qilgan hayot, shafqat, hurmat, umid, nur, ozodlik, birlik, hurriyat, hokimiyat, orzu, sevgi, do'stlik, bolalik, yoshlik, tabiat va bahor tuyg'ulari kabi tushunchalarni bog'lovchi so'zlar tizimi yaqqol ask etadi.

She'rlarida vaqt, tabiat, mavsum ramziy ma'no kasb etadi. Vohidov she'rlariga teran nazar bilan razm solsak, uning "his qiluvchi, sevguvchi; xayolot olami keng, muhabbat va estetikaga ahamiyat beruvchi va shu bilan bir paytda azob va qayg'ularni boshdan kechirgan" bir shoir ekanligini anglash mumkin. Shoir hurriyat va istiqlol tushunchalariga alohida urg'u berish bilan birga ijtimoiy masalalarni ham alohida e'tibor bilan yoritib bergan. Hayotni bir butun sifatida tasavvur qilgan shoir dunyoni, o'lkasini va unga oid muammolarni nafaqat analiz qiladi, balki bularning yechimiga doir choralar ham keltirib o'tadi.

Vohidovning she'rlarida leksikologik jihatdan diqqatni tortuvchi xususiyatlardan biri iboralardir. Uning xalq tilidan va iboralardan keng qamrovli shaklda foydalanganligi, shoirning mahalliylashish va milliylashishga harakat qilganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, u folklor namunalari, xususan, o'zbek maqollariga ham she'rlarida keng joy ajratgan.

Ijodkor tabiatni yaqindan va real tomonlari bilan mushohada qilib, she'rlarini eshitishga asoslangan taqlidiy so'zlar bilan bezaydi. Vohidovning tabiat va tasvir she'rlarida keng o'rin olgan taqlidiy so'zlar ko'proq fe'l funksiyasida namoyon bo'ladi. U she'rda ma'lum tovush, so'z, misra yoki bandlarda boshqa tovushlariga nisbatan ko'proq joy berish yo'li bilan amalga oshirilgan assonans va alliteratsiyalar ovoz va ma'no orasida musiqiy bahosi baland bir ohang ta'minlaydi.

Erkin Vohidov mehr-muhabbat kuychisi ekanligini aytish barobarida uning fikr, hurriyat va orzu kuychisi ekanligini ham ta'kidlab o'tish darkor.

Erkin Vohidovni ilmiy hay'at va tinglovchilar huzurida shunday tanishtirgan edim.

* * *

2010-yil… fevral oyi… 2009-yilning oxirida Shaqrshunoslik institutida dars berish uchun Toshkentga keldim. Bir tomondan darslarim davom etyapti, boshqa tomondan Toshkentni o'rganayotgan paytim. Ayni vaqtda, izlanish olib borayotgan shoirim bilan tanishish istagida yurgan paytim. Tohir aka menga bu mavzuda yordam berishi mumkinligini aytib qoldi. Erkin Vohidov bilan meni(qaytadan lekin yuzma-yuz!) tanishtirishini, bilan suhbat qilish imkoni yaratib berishini aytib qoldi. Nihoyat, u bir kuni meni chaqirib uchrashuv vaqtining belgilaganligi xabarini yetkazdi. Erkin aka bilan Beruniy metro bekati chiqishidagi "Beruniy" restoranida ko'rishishimizni aytdi. Men ham aytilgan kun va soatda belgilangan joyda bo'lishimni bildirdim.

Va kutilgan kun keldi.

Restoranga bordim. Tohir aka bilan suhbat qilib o'tirarkanmiz, Baxtiyor Nazarov va Erkin Vohidov kirib keldilar.

Erkin Vohidov, nihoyatda samimiy ohang bilan "Xush kelibsiz, turkiyalik mehmon. Boshimiz ko'kka yetdi. Xoh Tohir, xoh Baxtiyor akaning ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, meni mendan ham yaxshi biladigan mutaxassis… Siz bilan tanishganimdan mamnunman", deb men bilan salomlashdi.

Hammamiz o'rnimizga o'tirdik.

Taom asnosida suhbatimiz davom etdi. Keyinroq Erkin akaga, olib borgan ilmiy ishimning bir nusxasini va diskini, shoir haqida bosib chiqarilgan maqolalarimni taqdim qildim. U bir tomondan ilmiy ishimni ko'rib chiqar ekan, boshqa tomondan savollar berib, o'zi haqida, she'rlari haqidagi fikrlarim bilan qiziqardi. 2007-yili aspirantlik ilmiy ishim himoyasida hay'at huzurida aytib berganlarimni Erkin akaga so'zlab berdim. Erkin akaning o'zi ham she'r haqida, ijodkorning nima qilishi kerakligi haqida o'z fikrlarini aytar edi. Mavzu kengaygan sari kengayar, chuqurlashgan sari chuqurlashar edi.

Erkin aka, shundan keyin, "Savash Bey! Siz haqingizda, she'rlaringiz va asarlaringiz haqida juda ko'p ma'lumot to'plagan, izlangan, deb aytishganda shubham bor edi. Endi shubham qolmadi", dedi.

Uzoq yillar izlanib bitirgan ilmiy ishim himoyasidan chiqqan vaqtimda tuygan baxtiyorlik bilan Erkin aka bilan yuzma-yuz tanishgan, unga o'zi haqidagi ilmiy ishim va yozgan maqolalarimni taqdim qilgan ondagi hayajonim va baxtiyorligim, ular bilan suhbat qilish imkoni bergan soatlar hayotimning eng baxtli lahzalari, deb ayta olaman.

"Bir shoir va u bilan uch tanishuv". Bu jarayon ham tugadi chog'i.

Ilk tanishuvim uzoqdan, she'rlaridan kelib chiqqan holda o'zimning tanishuvim edi.

Ikkinchisi… Balki, tanishuvdan ham ko'prog'i edi. Bu mening Erkin akani o'rganish bosqichi sifatida baholashim mumkin bo'lgan tanishuv edi. Bu jarayonni boshqacha qilib shunday ifoda qilaman: *Saharlar qadar Erkin akaning kitoblari bilan band bo'ldim, ishladim.*

Va nihoyat, yuzma-yuz tanishuv bosqichi – uchinchi bosqich…".

**Veli Savash YELO'K,**
**filologiya fanlari doktori**

*Turkiya*

Ochiq dars

# “Men Vatanni bog‘ deb aytsam”...

## 6-sinflar uchun Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasi tahlili

**Darsning borishi:**
*Men Vatanni bog‘ deb aytsam,*
*Sensan unda bitta gul.*
*Men Vatanni ko‘z deb aytsam,*
*Bitta mujgon O‘zbegim.*

Assalomu alaykum, ulug‘larni ulg‘aytirgan el farzandlari, aziz o‘g‘il-qizlarim, ertamiz egalari! Bugun sizlar bilan elimiz suygan shoir, “O‘zbegim” qasidasi ila butun o‘zbek xalqiga chin ma’noda haykal qo‘ygan o‘tkir qalam sohibi Erkin Vohidov ijodi bilan yaqindan tanishamiz.

**1.** E.Vohidov haqida tayyorlangan rolik namoyish etiladi.

**2.** Uy vazifasi tekshiriladi (“O‘zbegim” qasidasini yod olish hamda o‘zlari uchun eng yoqqan bandiga rasm chizish uyga topshiriq sifatida berilgan).

1-guruh: Toza iymon.
2-guruh: Sodiq o‘g‘lon.
3-guruh: Ko‘ksi osmon.

“O‘zbegim” she’ri o‘quvchilar tomonidan galma-gal yod aytiladi. Rasm chizgan o‘quvchilar o‘z ishlari bilan doskaga chiqib, she’r aytadilar. Eng faol guruhga rag‘bat kartochkalari beriladi.

**3.** “O‘zbegim” qasidasi klaster usulidan foydalanib, birgalikda tahlil qilinadi. Bunda o‘quvchilar klasterni to‘ldirishlari kerak.




**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilarim, yurtimiz necha ming yillik ko‘hna tarixga, o‘z ilmi ila dunyoni zabt etgan buyuk siymolarga ega. Qani toping-chi, qasidaning qaysi o‘rnida shoir aynan boy tariximiz xususida so‘z ochgan?

**O‘quvchilar:**
Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o‘zbegim.
Ortda qoldi ko‘hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon o‘zbegim.

**O‘qituvchi:** Barakalla, keling endi “O‘zbegim” qasidasidagi nomi tilga olingan umri boqiy shoirlarni sanaymiz.




**O‘qituvchi:** Bilag‘on o‘quvchilarim, o‘zbek shoirasi Nodira, ma’rifatparvar shoirlarimiz Muqimiy, Furqat ismlari qasidaning qaysi bandida keltirilgan?

**O‘quvchilar:**
She’riyatning gulshanida
So‘ldi mahzun Nodira,
Siym tanni yuvdi ko‘zyosh,
Ko‘mdi armon, o‘zbegim.
Yig‘ladi furqatda Furqat,
Ham muqimlikda Muqiym,
Nolishingdan Hind-u Afg‘on
Qildi afg‘on, o‘zbegim.

**O‘qituvchi:** Barakalla! Endi sizlar bilan “Sirli sandiq” o‘yinini o‘ynaymiz. Qo‘limdagi ushbu sandiqchani bejiz “O‘zbegim” deb nomlamadim, ya’ni qasidadagi ba’zi birikmalarning ma’no sirlarini birgalikda topishga harakat qilamiz.

**4. “Sirli sandiq” metodi.** Guruhlardan bittadan vakil chiqib, “O‘zbegim” nomi yozilgan qutichadagi birikmalarga o‘z sharhlarini aytib o‘tadilar.

*Ko‘ksi qalqon*
*Yurti vayron*
*Toza iymon*
*Ko‘ksi osmon*

**O‘ZBEGIM**

**1-o‘quvchi:** Ko‘ksi qalqon
*Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,*
*Men bashar farzandiman,*
*Lekin avval senga bo‘lsam*
*Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegim.*

O‘zbek xalqi mustaqil bo‘lguncha necha-necha urushlarni ko‘rdi, qanday og‘ir va mashaqqatli kunlarni boshdan kechirdi. O‘zbekiston – har qanday sinovli kunlarda o‘z ko‘ksini qalqon qilguvchi mardlar yurtidir!

**2-o‘quvchi:** Yurti vayron

*Bu mo‘tabar tuproq ko‘plab qonli urushlarning guvohi bo‘lgan. Uzoqqa bormay yaqin o‘tmishimiz, mustamlaka davriga nigoh tashlasak, jannatmakon Vatanimiz, uning bebaho yodgorliklaridan tortib, keng va bepoyon dalalarigacha ayovsiz talofat yetkazildi. Biz buni unutmagan holda bugungi mustaqil O‘zbekistonimizning qadriga yetmog‘imiz darkor!*

***3-o‘quvchi:*** Toza iymon

*Odamiylik dini birla*
*Toza imon, o‘zbegim.*

O‘zbegimning boshiga har qanday kun kelishidan qat’i nazar, ota-bobolarimiz faqat va faqat o‘z odamiyliklariga, toza iymonlarigagina tayandilar. O‘z e’tiqodlarida sobit turib, iymonlarini asray bildilar.

**4-o‘quvchi:** Ko‘ksi osmon

*Menga Pushkin bir jahon-u*
*Menga Bayron bir jahon,*
*Lek Navoiydek bobom bor,*
*Ko‘ksi osmon, o‘zbegim.*

Jahonga yuz tutgan buyuk bobolarimiz bilan har qancha faxr etsak oz, ularning tabarruk siymolari biz uchun har jabhada o‘rnakdir. Men o‘zbek bo‘lib tug‘ilganimdan faxrlanaman.

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilarim, keling endi qasidadagi biz uchun biroz notanish bo‘lgan ba’zi tushun-




**O‘rxun xati**

**Ko‘ragoniy jadvali**

chalarga oydinlik kiritamiz.

**5.** Guruhlarning O‘rxun xati, Ko‘ragoniy jadvali haqidagi fikrlariga quloq tutamiz. *Tarix fani bilan integratsiya qilinadi.*

**1-o‘quvchi:** Bu eng qadimgi yozuv hisoblanib, toshga bitilgan yodgorlikdir.

Ma’lumki, turkiy xalqlar o‘z davlatiga ega bo‘lgan eng qadimgi dunyo qavmlaridan biri. O‘rxun-Enasoy obidalari ana shu tarixni badiiy tarzda hikoya qiladi. Ular O‘rta Osiyodan boshlab Dunaygacha bo‘lgan ulkan hududda o‘z davlatlarini idora qilishgan. Yodgorliklar, asosan, VI–VIII asr voqealarini aks ettiradi.

**2-o‘quvchi:** O‘rxun yozuvi runik, ya’ni sirli yozuv deb yuritiladi.

*O‘qituvchi o‘rxun yozuvi aks etgan yozuvni ko‘rsatib o‘tadi. Shunda uning nima uchun sirli deyilishini o‘quvchilar anglab oladilar.*

**O‘qituvchi:** Juda yaxshi, Ko‘ragoniy jadvali haqida ham ma’lumotga egamisiz?

**3-o‘quvchi:** Mirzo Ulug‘bekni XV asrdan beri Yevropa va Amerikada ham, Osiyoda ham yaxshi bilishadi. Chunki bu zot astronomiya ilmiga chin ma’nodagi tamal toshini qo‘ygan.

**4-o‘quvchi:** Uning osmon, koinot hamda yulduzlar ustida olib borgan ishlari yevropaliklar uchun fan taraqqiyotidagi ulkan kashfiyot deya e’tirof etildi. Uning qalamiga mansub bo‘lgan asarlardan biri — “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” tarixiy ahamiyatga molikdir.

**5-o‘quvchi:** 1020 ta yulduzning joylashishi to‘g‘risidagi ma’lumot hech qanday texnikasiz olindi. Keyinchalik zamonaviy texnika vositalari orqali aniqlanganda Mirzo Ulug‘bek bor-yo‘g‘i 2 tagina yulduzga adashganligi ma’lum bo‘ladi. Buni hayrat bilan so‘zlagan Fransiya Prezidentiga O‘zbekistonning Birinchi prezidenti I.Karimov “Balki sizlarning kompyuteringiz adashgandir”, deya javob bergan.

**O‘qituvchi:** Dono o‘g‘il-qizlarim, barchangizga rahmat. Erkin Vohidov ijodiga befarq emasligingiz, qasidani zavq bilan yod olganingiz meni juda quvontirdi.

**6. Baholash.** Fikri teran, nutqi ravon, zukko o‘quvchilar alohida e’tirof etiladi hamda “O‘zbegim faxri” nishoni bilan taqdirlanadi. G‘olib guruhga rag‘bat kartochkalari beriladi.

**7. Uy vazifasi.** “O‘zbegim” qasidasi – Ona Vatanga mehrim jilvasi” nomli matn yozish.

**Kamola NABIYEVA,**
**Yunusobod tumanidagi**
**274-maktabning ona tili va**
**adabiyot fani o‘qituvchisi**

Luqma

# "Shoirlik — bu shirin jondan kechmakdir"

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning ikki to'plami – "Muhabbatnoma" va "Sadoqatnoma" yoshlik yillarimning ajralmas hamrohi bo'lgan. Ushbu kitoblar Abdulla Oripovning "Yillar armoni" va Rauf Parfining "Sabr daraxti" kitoblari bilan yonma-yon, qayga bormay, o'zim bilan olib yurardim.



Qayga bormay deganda ijaraxonalarni nazarda tutyapman. Ayniqsa, Toshkentning "Gulxona" mahallasida, ustoz adib Xudoyberdi To'xtaboyev xonadoniga yaqin joydagi bir hovlining oynalariga qish naqsh solgan boloxonasida, izillagan sovuqda shu kitoblarni qayta-qayta o'qiganlarim esga keladi.

Qish va she'r... Bularning o'zaro qanday aloqasi bor, aytish qiyin.

Universitetda tahsil olgan kezlarimiz ustozlar Begali Qosimov va Boybo'ta Do'stqorayev jadidlar zamonasi haqida avval sira eshitmagan ma'lumotlarni so'zlab berishardi. Lekin undan ham avval yana bir voqeani eslab o'tish kerak bo'ladi.

Bir kuni shoir G'ulom Fathiddin bir qancha yoshlarni o'z "kulbayi shoirona"siga taklif qildi. U paytda men o'n yetti yashar yigitcha edim. Adashib-uloqib aytilgan joyni topib bordik: yangi shahar qismidagi eski, qarovsiz hovlilardan biri ekan. Kichkina, pastak hujralar, qo'lbola temir kursi, eski yozuv stoli, qoldiqlarga to'lib ketgan kuldon va qizg'in bahslar, yoniq she'rlar esda qolgan. Yurt ozodligi haqida favqulodda gaplarni o'shanda eshitganman. O'zimiz ko'rib-bilib yurgan voqelik aslida boshqacha ekanini, mamlakatda vatan hurriyatini orzu qiladigan o'tyurak kishilar borligini bilganman.

Universitetni bitirib, "katta hayot"ga qadam qo'yganimizda ham jadidlik davriga xos gap-so'zlarni ko'p eshitdik. U murakkab davrda mumtoz adabiyotimizga "feodal-klerikal" degan tamg'a urib, kerakmas matohga chiqarilganini, zamonaviy nazm endi mutlaqo yangi – sotsialistik yo'ldan ilgarilashi haqidagi tashviqiy maqolalarga ham duch kelganmiz. O'shanda, ongda to'satdan shunday savol tug'ilib qoldi: modomiki, o'tmish qoralangan va unga oid har narsa uloqtirib tashlangan bo'lsa, u holda tabiatan juda zukko va nozikta'b shoir Erkin Vohidov nima sababdan aruzda she'r bitish yo'lini tanladi ekan?

Erkin akaning bir qancha suhbatlarida ishtirok etish nasib qilgan bo'lsa-da, buni o'z vaqtida so'ray olmaganmiz. Suhbatlarda shoirning so'zlarini nafas yutib tinglardik, xolos. Savol berishga jur'atimiz yetmagan.

Erkin akaning o'zi shu uslubdagi g'azallari tufayli malomatlarga qolganini aytadi.

Shoirga "O'tmishni ulug'lash", "Eski zamonlardan qolgan aruzni tiriltirish" degan ayblar taqaladi. Darhaqiqat, ayblovlar to'g'ri edi: u kishi milliy mumtoz merosimizning qanchalar nafis va nozik ekanini, ancha-muncha kommunistik san'atlardan ustun turishini ko'rsatib qo'ygan edi.

"O'zbegim" qasidasi ham o'sha yillarda yoziladi.

Qasidani hamma yod oladi. Faxriddin Umarov, Umar Atoyev, Sherali Jo'rayevlar qo'shiq qilib kuylashadi.

"Bu she'r yozilgan payti odamlarda shunday so'zga ehtiyoj katta bo'lgan, – deb eslaydi shoir. — Chunki ona tilimiz nihoyatda orqaga surib qo'yilgan, kamsitilgan edi. Undan keyin, o'zbek xalqining tarixiga bo'lgan munosabat ham juda yomon edi. Go'yoki, tariximiz faqat qorong'ilikdan iborat-u, biz oktabr inqilobi tufayli baxt, ilm topgandik...".

Erkin aka shundan so'ng, 1970–75-yillar oralig'ida ishsiz yuradi. "Hech qayerda she'rlarim ham chop etilmadi. Bu yillar mening eng ezilgan, tushkun va kayfiyatsiz yillarim bo'ldi. Mana shu besh yil ichida hech narsa yozmaganman. Yozsam ham chiqmasdi-da! Vaqtni bekor o'tkazmaslik uchun "Faust"ni o'zbek tiliga o'girdim", deb eslaydi u o'sha yillarni.

Shunday. Erkin aka bilan birga, Sobir Abdulla, Chustiy, Habibiy kabi shoirlar ham mumtoz adabiyot an'analarini davom ettirishdi. Ularning asarlari bir dunyo, Erkin aka bitgan g'azallar yana bir dunyo edi.

"O'zbegim" qasidasi va uning yozilish tarixi ko'pchilikka ma'lum. Lekin Erkin Vohidovning aruziy ijodidagi muxammaslar ham alohida e'tiborga loyiq.

Shoirning bir muxammasi Fuzuliyning ushbu g'azaliga bag'ishlangan:

*Aql yor o'lsaydi tarki ishqi*
*yor etmasmidim,*
*Ixtiyor o'lsaydi rohat*
*ixtiyor etmasmidim.*

Erkin Vohidov yozadi:

*O'lmasam zor anga, tarki*
*oh-u zor etmasmidim,*
*Ishq koridan kechib,*
*bir o'zga kor etmasmidim,*
*Gar junun yor o'lmasa,*
*holimdan or etmasmidim,*
*Aql yor o'lsaydi, tarki ishqi*
*yor etmasmidim.*
*Ixtiyor o'lsaydi rohat,*
*ixtiyor etmasmidim.*

Bu o'rinda g'azal bahriga o'zbek so'zlarining o'rnashishi-yu unda qo'llangan san'atdan ham ko'ra, zamiridagi yashirin mazmunga nazar solaylik. "Agar men Unga zor bo'lmasaydim, unga oh-u zorimni tark etgan bo'lardim-ku" deyilganidagi mazmunni ko'ring. Buni she'r tilidan so'zlashuv tiliga o'girsak, shunday ma'no kelib chiqadi: "Agar men Yaratgan Parvardigorimga zor bo'lmasaydim, unga ibodatni tark etmasmidim?" Ikkinchi misraning mazmuni: "Ilohga bo'lgan muhabbatimdan voz kechib, boshqa bir ish ila mashg'ul bo'lmasmidim?". Uchinchisi: "Uning ishqida jununga tushib, telbavor bo'lib aqlim boshimdan uchmaganida, bu holatimdan or qilmasmidim?" Va, uzukka ko'z qo'yganday Fuzuliy bobo baytlari keladi: "Agar aql menga yor bo'lsaydi, ya'ni o'zimga bo'ysunsaydi, u holda yor, ya'ni iloh ishqini tark etmasmidim" va "Agar rohatni ixtiyor qilgan bo'lsaydim, ixtiyor qilmasmidim?"

Mazkur muxammasni Erkin Vohidov 1968-yili, ya'ni o'ttiz ikki yoshida bitgan.

Bu paytda Sovetlar imperiyasi kosmonavti Yuriy Gagarin fazoga ko'tarilganiga yetti yil bo'lgan, imperiyachilar shov-shuv ko'tarib, "Inson kosmosga chiqdi, u yerda Xudo yo'q ekan!" deb ayyuhannos solayotgan bir davr edi.

Erkin Vohidov esa, Navoiy, Fuzuliy va Nasimiy she'riyatini davom ettirayotgan edi.

Ustozning yana bir mashhur muxammasi buyuk Navoiy bobomiz g'azaliga yozilgan. Hazratning g'azali shunday boshlanadi:

*Har qachonkim kemaga*
*ul oy safar rahtin solur,*
*Mavjlig' daryo kabi*
*oshufta ko'nglim qo'zg'olur.*

Erkin Vohidov unga shunday muxammas bitadi:

*Sun qadah, bergil menga*
*jonim haqin, ey piri dayr,*
*Kim qadahlar zarbidan*
*chiqsin chaqin, ey piri dayr,*
*Bormi Erkinga ul ustozdin yaqin,*
*ey piri dayr,*
*G'arq etar bahri fano g'am*
*zavraqin, ey piri dayr,*
*Ilgiga chunkim Navoiy boda*
*kishtisin olur.*

Tariqat tilida "qadah sunmoq" yoki "may sunmoq" – Tangri taolo jilvalariga mahliyo bo'lmoqdir. "Bergil menga jonim haqin" – o'ta teran ma'noli bu so'zlarning soddalashtirilgan mazmuni: "Meni yaratgan Tangrim bergan jonning haqi ibodatdir" degan ma'no kelib chiqadi.

"Bormi Erkinga ul ustozdin yaqin, ey piri dayr" – bu tushuncha Navoiy she'riyatida majoz yo'sinida komil inson, murshid, pir ma'nosida qo'llaniladi, – deb yozadi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Olimjon Davlatov. – Zardushtiylik dinida dayr piri – mo'badning vazifasi – muqaddas olovning bir maromda yonishini ta'minlash hamda ziyoratchilar uchun muqaddas sanalgan maxsus sharob tayyorlash va taqsimlash bo'lgan. Irfoniy ma'noda esa pir – shayx o'z muridining qalbida yonayotgan Ishq olovi bir zaylda yonib turishini nazorat qilib, ularning qalbini ilohiy ma'rifat sharobi bilan sarmast etadi. Shu sababdan, bunday zotning dargohi yaxshilarga ham, yomonlarga ham boshpana bo'ladi".

"G'arq etar bahri fano g'am zavraqin..." – ya'ni, g'am kemasini fano dengizi g'arq etadi, bu o'rinda sovet imperiyasi olovdan qo'rqqanday qo'rqqan naqshbandiya tariqatidagi faqr-u fano maqomi nazarda tutilmoqda, ushbu manzilga yetganlarning g'am-alami bo'lmaydi, deyilmoqda.

Bugun bu haqda emin-erkin yozilmoqda, ammo Erkin akaning ushbu muxammasi 1977-yilda bitilgan edi-da!

1977-yilda nimalar bo'lgan edi?

Mamlakatlarning qurollanish poygasi o'ta avjiga chiqqan, Sovetlar Ittifoqi Afg'onistonga bostirib kirishga tayyorlanayotgan, shu sababli Hindiston va Pokiston bilan yaqin aloqalar o'rnatishga urinilayotgan bir davr edi.

Albatta, Erkin Vohidov bu so'zlar mazmunini juda yaxshi bilardi. Bila turib, shu jasoratga qo'l urgan, shundan so'ng keladigan yillarning mashaqqatlariga chidagan ham edi.

So'zimizning boshida jadidlar davridan boshlagan, **YURTNI FAQAT MA'RIFAT QUTQARA OLADI,** deb mol-u jonlarini xalq ravnaqi yo'lida fido qilgan yuzlab yoniq yurakli ajdodlarimizni eslagan edik.

Mustamlaka imperiyasi eng gullab-yashnagan zamonlarda e'tiqodning oliy maqomlari haqida she'r bitib, teran ma'nolarni bayt ichiga yashirgan shoirni ham nafaqat mumtoz adabiyot an'analarini, balki jadidlik an'analarini ham davom ettirgan deya olamiz, albatta. Shoir ijodidagi bu an'analarning ildizi esa, adibning tog'asi Karim Saxiboyev xonadonida o'sha kezlar tez-tez bo'lib o'tgan she'riyat majlislariga borib taqaladi.

Erkin Vohidov asarlarining mulohaza yuritishga undaydigan yana bir qancha jihatlari bor, vaqti kelsa, ular haqida ko'lamli tadqiqotlar yaratilsa ajabmas.

Erkin Vohidov bir she'rida:

*Shoirlik – bu shirin*
*jondan kechmakdir,*
*Limmo-lim fidolik*
*jomin ichmakdir,*

*Shoirlik – jigarni ming pora etmak,*
*Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak.*

*O'zni tomchi-tomchi, zarra va zarra,*
*Elga qurbon qilib eng so'nggi karra.*

*Armon bilan demakdir:*
*«Ey, ona yurtim,*
*Kechir, xizmatingni*
*qilolmay o'tdim».*

Hayoti mobaynida xalqiga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilish o'rnagini bergan ulug' shoirimizning ruhi shod bo'lsin, nur ichida yotsin, deymiz.

Xalqidan rozi bo'lib ketdi, xalqi ham undan rozidir, deymiz.

Isajon SULTON

“Ma'rifat” gazetasi bu yil 90 yoshga to'ldi. Shu munosabat bilan unda faoliyat yuritgan ko'plab ijodkorlarning gazeta bilan bog'liq xotiralari, unutilmas voqealar, ustozlaridan olgan o'gitlari-yu dil qa'ridagi aytilishni istagan izhorlari bitilgan maqolalarni yil davomida chop etib bordik. “Ma'rifat” ijodkorlaridan tashqari, uning mushtariylari ham o'z faoliyatida “Ma'rifat”ning tutgan o'rni borasidagi o'y-kechinmalarini yozib yuborishgan. 2021-yil poyoniga yetishi chog'ida bu maqolalarning barchasi to'planib “Mehr va mahorat maktabi” deb nomlangan kitobga aylandi.
Mazkur kitobning taqdimot marosimi Milliy matbuot markazida tantanali ravishda o'tkazildi. Taqdimotga Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidov tashrif buyurdi.

# “Ma'rifat”, mangu yasha!

## “Madaniy inqilob”dan ta'lim inqilobigacha




— Ma'naviy ozuqa olish, chin inson bo'lib yetishishda gazetalarning o'rni beqiyosdir, — dedi Xalq ta'limi vaziri. — Mutolaa insonni komillik sari yetaklaydi, dunyoqarashini boyitadi, nutqini o'stiradi, savodini mustahkamlaydi. Bugungi zamonaviy axborot tizimi rivojlangan internet asrida bosma nashrlarning ahamiyati yanada yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ochig'ini aytish kerak, o'tgan 2-3 hafta davomida 5-6 viloyatda bo'ldik. Odamlar bilan muloqotda bo'ldik. Ayniqsa, nuroniy o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganib, gazetaning qay darajada zarurligini yana bir bor angladik. Negaki, respublikamizning barcha hududlariga ham internet tarmog'i hali kerakli darajada yetib borgani yo'q. Shuning uchun ham ayrim hududlarga gazetaning internetdan ko'ra yetib borishi osonroq. Mutolaa birinchi navbatda aynan gazeta, kitob o'qishdan boshlanadi. Bu narsani bugun gazeta va kitob o'qishga qiziqmaydigan odamlar ongiga yetkazish bizning farzimiz va qarzimiz deb o'ylayman.

Xalq ta'limi vazirining gazetalar faoliyatiga nisbatan bildirgan yuksak ehtiromi Milliy matbuot markaziga yig'ilgan barcha matbuot ijodkorlari va ixlosmandlarini quvontirdi.

“Mehr va mahorat maktabi” kitobi to'rt bobdan iborat bo'lib, uning “Ma'rifatli ustozlar” deb nomlangan birinchi bobiga gazetada faoliyat yuritgan Halim Sayid, Luqmon Bo'rixon, Jahongir Ismoilov, Hulkar To'ymanova kabi bir qator ustoz jurnalistlarning xotiralari, tilaklari jamlangan. “Xalq ziyolilari gazetasi” deb atalgan ikkinchi bob uzoq yillardan beri gazeta bilan hamkorlik qilib kelayotgan taniqli olimlar va faol o'qituvchilarga ajratilgan. “Hammamiz “Ma'rifat”danmiz”, “Ma'rifat” mahorat maktabi” boblaridan esa tahririyatda faoliyat yuritgan taniqli jurnalistlar va gazeta qoshida tashkil etilgan mahorat maktabi tinglovchilarining maqolalari o'rin olgan.

Taqdimot tadbirida “Ma'rifat” tahririyatida ko'p yillar faoliyat yuritgan faxriylar, ustoz jurnalistlar, yosh qalamkashlar, gazetaning doimiy mushtariylari tashrif buyurishdi.

Biz ularning fikr-mulohazalarini sizga yetkazish uchun yozib oldik:

**Shavkat XO'JAQULOV,**
**Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi matbuot kotibi:**



— Jurnalistikada ixtisoslashuv muammosi haqida ko'p gapiriladi. “Ma'rifat” gazetasi bunga allaqachon yechim topgan. Gazeta huzuridagi “Mahorat maktabi” ta'lim sohasini tushunib, yoza oladigan yuzlab ijodkorlarni yetishtirgan. So'nggi yillarda ta'limning har bir bosqichi bo'yicha mutaxassislar bilan teng tushunib yoza oladigan 50 nafardan ortiq jurnalist tarqalib ketganida ich-ichimdan kuyingandim.

Tadbirda yaxshi fikrlar bildirildi. Xususan, ta'lim muammolarini yoritish va ularga yechim berishda gazetaning o'rni haqida jo'yali misollar keltirildi. Yana bir zo'r taklif — “Ma'rifat”ning ta'limga ta'siri bo'yicha tadqiqot o'tkazish zarurligi ta'kidlandi. Nashrning ta'limdagi o'rni va ahamiyati haqida soatlab gapirish mumkin. “Ma'rifat” har bir maktabga, imkoni bo'lsa har bir o'qituvchiga yetib borishi, tahririyatda avvalgidek har bir bo'limda kamida 3-4 nafar muxbir ishlashi, gazeta arzon bo'lishi, yanada sifatli chiqishi va o'z vaqtida yetib borishi lozim. Yaqin kelajakda pedagoglarimizning moddiy sharoiti yaxshilanishi barobarida ularning gazetasi ham yuqoridagi natijalarga erishishiga umid qilamiz.

**Aziza BOYMURODOVA,**
**Kattaqo'rg'on tumanidagi 28-maktab direktori:**



— Hayajonimning cheki yo'q. Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidov “Ta'lim tizimi xodimlari bosma nashrlar bilan hamnafas bo'lishi, internet yetib bormagan qanchadan-qancha maktablar borligi, ular matbuot nashrlarini o'qish imkonini topolmasligi”ni aytayotganida, to'g'risini aytay, yuragim urishi tezlashib ketdi. Onlayn gazeta o'qish u yoqda tursin, kundalik.comga mavzu yozsa, bahosini qo'yish uchun soatlab internet axtarayotgan, ota-onalarga uyma-uy yurib bolasining o'qishlarini simsiz kundalik.comda nazorat qilishni so'rab yurgan sinf rahbarlari ko'z oldimga keldi.

Beixtiyor, ertadan kechgacha maktabda bo'lib, kunora qo'lida bir quchoq gazeta bilan uyga qaytgan dadajonim, sinfxonada quchog'iga sig'magan gazeta-jurnallarni har bir o'quvchiga mehr bilan uzatgan, ma'naviy olamimizni boyitishga hissa qo'shgan muallimlarimning mehribon siymosi gavdalandi.



Bordi-yu, ta'lim nashrlarini qo'ldan qo'ymay, o'quvchilarini ham bolalar nashrlariga “oshiq” qiladigan muallim-lar armiyasi qaytadan shakllansa, qaysidir ma'noda o'quvchi yoshlar ongida ma'naviy o'sish yanada yuksalib, mayda jinoyatchiliklarning oldi olinarmidi?

Xalq ta'limi vazirining har bir gapi xuddiki ta'limda yangi – bosma nashrlar bilan hamohang, mahorat maktabining har bir sabog'idan kuch olib ishlaydigan davr kirib kelayotganini anglatgandek bo'ldi.

Chekka qishloq maktabida o'qib, o'zi o'qigan maktabda faoliyat yuritayotgan mendek muallimga “Ma'rifat” qirq yillik qadrdonga aylangan. Ilk bora 1979-yili dadajonim “bola tarbiyasiga doir zo'r maqola bor ekan” deya onamga uzatganida taniganman “Ma'rifat”ni. Yillar davomida ta'lim nashrlarini o'qib, o'rganib ijodga havasimni oshirgani, turli viloyatlardan bo'lgan muallimlarning mahorat saboqlaridan ushbu nashrning “ustoz-shogird” an'analari orqali motivatsiya olganimdan baxtliman.

Yunusobod tumanidagi 274-maktab muallimasi Mahmuda Valiyeva bilan 1996-yili “Ma'rifat”da chop etilgan “Y[illegible]lik daftari kerakmi?” maqolasi sabab tanishganman. So'ngra Mahmuda opa bilan bir-birimizga yozgan o'nlab maktublarimiz gazetada e'lon qilingan edi.

O'sha paytda gazetaning bosh muharriri bo'lgan Halim Saidovga telefon qilib “Aynan muallim haqidagi mana shu she'rimni gazetada bersangiz. Mahmuda opamga atalgan deb ham yozilsin” degan gapimdan hanuz xijolat tortaman. Halim aka bitta gap bilan shijoatimni so'ndirishi ham mumkin edi. Ammo buning aksi bo'ldi. “Albatta, nashrga beramiz, gazetamizning eng faollaridansiz-ku” degan birgina e'tirofi meni doimiy ilhomlantirib, ijodga, kasbimga bo'lgan mehrimni olovlantirgan.



Ilk bora 2006-yili tahririyatga kel[illegible] Mahmud Sa'diy, Halim Saidov, Abdusamad Rahimov, Mahmuda Valiyeva,




Bahodir Jovliyev, Hulkar To'ymanova, Sherali Nishonov, Nasiba Erxonova, Xayrullo Abdurahmonov, Oybuvi Ochilovani ko'rib, ular bilan yaqindan tanishgan chog'imdagi hayajonlarimni hali ham unutmayman.

Bugun “Ma'rifat”dan topgan qadrdonlarim safi kundan kunga kengayib bormoqda. Qachondir Mahmuda opamga havaslanib mehr bilan talpingan bo'lsam, bugungi kunda ushbu gazeta sabab termizlik Gulchehra Ashurova, Toshkent viloyatidan Ulug'oy Xudoynazarova, Dilfuza Suvonova, buxorolik Qorako'z, romitonlik Madina Baxshilloyeva, Faridaxon Axboraliyeva, andijonlik Mavludaxon, Mohidil Xushvaqtova, samarqandlik Nargizaxon Xolmatova kabi o'nlab muallimlar mehri, ixlosi, samimiyatini, tajribasini o'rganib, o'rgatib yayrayapmiz.

Bir so'z bilan aytsam men “Ma'rifat”dan mehr ko'rdim, mahorat saboqlarini o'rgandim. Har bir muallimga beminnat saboq berib yuksalayotgan “Ma'rifat”ning adadi millionlarga yetsin.

“Men ma'rifat targ'ibotchisiman” deb faxr tuyadigan o'qituvchilar safi kengaysin.



**Dilfuza SUVONOVA,**
**Yangiyo'l tumanidagi 42-maktab o'qituvchisi:**

— Bu yil “Ma'rifat” gazetasi 90 yoshga to'ladi, deyilganidan buyon biz mushtariylarning zavqimiz oshdi. Yubileyni o'zimizcha qanday o'tkazishni telegram guruhimizda maslahatlashamiz. O'zbekistonning barcha viloyatlaridan ma'rifatli ustozlarni bir joyga jamlagan “Ma'rifat” mushtiriylari” guruhimizda qancha-qancha rejalar tuzdik. Hammamiz tahririyatda yig'ilishni niyat qilgandik.

Nihoyat o'sha kun yetib keldi. Tongdan kayfiyatim zo'r. Maktabga yurib emas, uchib borayotgandayman. O'quvchilarimga ham maqtanib qo'yaman. Ularning havasdan porlagan ko'zlari yanada quvvat bag'ishlaydi. Darsdan so'ng tezda yo'lga tushibman. Milliy matbuot markaziga anjuman boshlanishidan bir soat oldin yetib bordim. Hali ko'pchilik kelmagan ekan. Zalga kirib, bir chetda o'tirdim. Birozdan so'ng men uchun qadrli singillarim, “Ma'rifat” muxbirlari Zilola Madatova va Niginabonu Shukurovalar kirib kelishdi. Qadrdonlar bilan yuz ko'rishdik. Husan Karvonlining “Assalomu alaykum, Dilfuza opa, xush kelibsiz” deb kirib kelishlaridan juda xursand bo'ldim. Zal mehmonlar bilan to'la boshladi. Markaziy nashrlarning bosh muharrirlari, muxbirlari kelishdi. Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidovning shaxdam qadamlar bilan jilmayib kirib kelishi zalga yanada ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Prezident ta'lim muassasalari agentligi o'quv jarayonini metodik ta'minlashni takomillashtirish bo'limi boshlig'i Komil Jalilov minbarda nutq so'zlayotib mening ham adabiyot ta'limi haqida gazetada chop etilgan fikrlarimni aytib, ismimni tilga olganida juda sevindim. Biz o'qituvchilarning ham fikrlariga befarq qaralmayotgani, inobatga olinayotganidan boshim osmonga yetdi.

Tadbirda ishtirok etib, “Ma'rifat” gazetasining har bir xodimi juda dilkash, samimiy insonlar ekanligiga amin bo'ldim. Yosh shoir va jurnalist Humoyun Quvondiqovning yozganlarini gazetada maroq bilan o'qir ekanman-u, qo'ygan taxalluslaridan bularni turfa xil odamlar yozgan deb o'ylarkanman. Bilsam, bu “tesha tegmagan” maqolalarning muallifi kamtaringina Humoyunjon ekan. U bilan yaqindan tanishib, biroz suhbatlashdim.

Anjumanga tashrif buyurgan yozuvchi Luqmon Bo'rixonning ham kitoblarini ko'p o'qiganman, ammo o'zini shaxsan ko'rmagandim. Tadbir bahona yozuvchi bilan suhbatlashishga muyassar bo'ldim.

“Mehr va mahorat maktabi” kitobini qo'limga olar ekanman, qanchadan-qancha ziyoli insonlarni bir yerga birlashtira olgan ulkan maktab o'tmish va buguni bilan tanishdim. Gazetamiz haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'ldim.

Darhaqiqat, sahifamiz oxirida yana sevimli gazetamizning tarixiga nazar solaylik. Ma'lumki, “Ma'rifat” gazetasi 1931-yilda ilk bor “Madaniy inqilob” nomi bilan chop etila boshlagan edi. Xalq ta'limi vaziri Baxtiyor Saidov gazetamizning 90 yilligi munosabati bilan yo'llagan tabrik so'zida ta'kidlaganidek, “Xalq ziyolilari, o'qituvchilarning yaqin ko'makdoshi “Ma'rifat” gazetasi bugungi kunda ta'lim inqilobi bo'lib xizmat qilishi kerak. Xalq ta'limi tizimini tubdan o'zgartirish, shu bilan birga o'zgartirish kiritishga astoydil bel bog'lashi zarur. Ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni barcha islohotlardan to'la xabardor etish va shu orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish “Ma'rifat” gazetasining asosiy shioriga aylanishi joiz”.





Sahifani Zilola MADATOVA va Charosxon MANNONOVA tayyorladi.

Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.

Sinab ko'ring

— Gulmisiz, rayhonmisiz, janbilmisiz?
— Aytganingizman.
— Bir so'rasam, "**Charog'bonsiz**", bir qarasam, "**Tong nafasi**"siz.
— "**Mening yulduzim**", "**Yurak va aql**"danda.
— "**Qo'shiqlarim sizga**" bilsangiz.
— Bilaman, "**Lirika**"m bor, unda "**Muhabbatim**" kuylanadi.
— "**Buloq**"dan toza suv ichgan "**Sevgi**"ngiz ham **Oltiariqda** sharqirab oqmoqda.
— Ha, "**Ona tuproq**" — bu mening "**Quyosh maskani**"m.
— "**Palatkada yozilgan doston**"laringiz "**Dostonlar**"ingiz sarasimi?
— "**Nido**" va "**Iztirob**" "**Ruhlarim isyoni**"da yashayveradi.
— Eh, sizni qarang, "**Yoshlik devoni**"ingiz "**Tirik sayyoralar**"day.
— "**Yoshlik**"dagi faoliyatimni eslasam, bu davr "**Oltin devor**" dan, unda "**So'z latofati**"im ham bor.

# Erkin Vohidov ijodi asosida payrov

— "**Iztirob**" chekmayman, balki o'tgan har bir kunim "**Sadoqatnoma**"m mening deng.
— Ha, xuddi shunday, "**Mening yulduzim**" o'chmas yulduz.
— "**Faust**"da ham ko'rdik uni.
— "**O'zbegim**" bor ekan. "**Dostonlar**"im bilan yashashni yoqtiraman.
— **Tirik sayyoralar**" bu "**Kelajakka maktub**"dir.
— "**Matmusaning tandiri**" qanday?
— "**Piyolaga egilar choynak**"day-da .
— "**Sharqiy qirg'oq**" "**So'z chamani**"dan ham mangu yashashdir. "**Yaxshidir achchiq haqiqat**"da ham "**Kamtarlik**" bor.
— Siz "**Hadya**"**ni** ayting, "**Hadya**"ni ...
— Bu "**Tush**" hammasi desam, "**Murg'ak vujudimda faqat zo'r titroq**" ekan.
— Ha biz "**Tinchlik janggohining fidosimiz**".

**"Bilimdon 5 sandiq" metodi**

Adabiyot — hayot darsligi. Bu darsni bola ongiga singdirish har bir o'qituvchidan mahorat talab etadi. Men ham har bir darsimni o'zgacha: biri boshqasida takrorlanmasligi uchun yangi usullardan foydalanaman. Darsni tashkil etishda o'z ish tajribamda foydalangan metodlarimning birini sizlar bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Bunda 5-sinfda "E.Vohidov hayoti va ijodi hamda uning "Nido" dostonini o'rganishda foydalanish mumkin. "**Ogohlik — davr talabi**" kun shiori ostida darsni tashkil etish va o'quvchilar tomonidan darsda maxsus uchburchak, to'rtburchak shakllar asosida "Tinchlik — ulug' ne'mat" monumentini tayyorlash ham mumkin.

Darsni boshlashdan avval dars uchun kerakli ma'lumotlar va jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish kerak bo'ladi. Ekranda "Bilimdon 5 sandiq" slaydi ko'rsatiladi.

1-sandiq ichidan chiqarib(slayd asosida ko'rsatilib) "Maktub" audio orqali bolalarga o'qib eshittiriladi.

"Bu inson qish kechalarining birida bundan ancha yil oldin Yangi yil bayrami arafasida tug'ilgan. Otasi va onasidan turmush zarbalari bois erta ajralib qoladi. Tog'asi qo'lida tarbiya topadi va kitobga, ayniqsa, adabiyotga havasi baland bo'ladi.

Ko'pgina ijodkorlarning asarlarini berilib o'qigan, ulardagi badiiy mahorat sirlarini, so'zga mas'uliyat hissini o'rganishga sidqidildan intiladi.

Ilk asari 25 yoshida chop etilgan bo'lib, bu asar "Tong" so'zi bilan boshlanadi.

Uning o'zbek sahnasida sevilib tomosha qilingan dramasi hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xalqimizning hurmati va ehtiromiga sazovor bu insonning yuksak unvonlari bor.

O'qib eshittirilgan ushbu ma'lumotlarning kim haqida ekanligi 2-sandiqchada berilgan "**Topqirlar zehni**" topshirig'i asosida o'tkaziladi. Bunda audioda o'qib eshittirilgan ovozli maktubda berilgan ma'lumotlar darslikda berilgan yozuvchi hayoti va ijodi asosidagi matn bilan to'ldiriladi.

**Qish kechasi:** 1936-yil 28-dekabr.

**Turmush zarbasi**: Avval otasidan, keyin onasidan ajralgan.

**Kitobga, ayniqsa, adabiyotga havasi baland**:Toshkent davlat universiteti(hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida)ning filologiya fakultetiga o'qishga kiradi.

1961-yilda shoirning birinchi to'plami "**Tong nafasi**" chop etiladi. Shundan so'ng birin-ketin "Qo'shiqlarim sizga", "Yurak va aql", "Tirik sayyoralar", "Hozirgi yoshlar", "Yoshlik devoni", "Mening yulduzim", "palatkada yozilgan doston", "Nido", "Lirika", "Charog'bon", "Muhabbat", "Iztirob" kabi asarlari kitobxonlar qalbidan o'rin oladi.

"Oltin devor" dramasi **o'zbek teatr sahnasining** eng ajoyib san'at durdonasi sifatida e'tirof etiladi.

**Mukofotlari haqida**(ham og'zaki, ham yozma tarzda) E.Vohidovning el-yurt oldidagi mehnatlari inobatga olinib "**Buyuk xizmatlari uchun**" ordeni va "**O'zbekiston Qahramoni**" unvoni berilgan.

**3-sandiqcha "Ha" yoki "Yo'q"** jadvali asosida ishlash:

E.Vohidovning "Istanbul" fojiasi asari drama janrida yozilganmi? (Ha)

E.Vohidov Gyote, Yesenin asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilganmi? (Ha)

Shoirning "Nido" asari drama janrida yozilganmi? (Yo'q)

"Ruhlar isyoni" dostoni xalqlar, millatlar, dinlar, o'rtasida nizolar bashariatga katta falokatlar olib kelishi haqida yozilganmi? (Ha)

**4-sandiqchadan "Nido"** dostoni asosida tayyorlangan topshiriqlar beriladi: (Bunda o'quvchilarning geografiyaga oid bilimlari ham sinovdan o'tkaziladi: Dostonda qayd etilgan yulduzlar: Surayyo, Zuhro, Somon yo'li(rasmlar asosida asarda keltirilgan misralar tahlili tinglanadi.

**Hilol** – Oy

**Zuhro** – Venera

**Surayyo** – bolaga "**men sening baxtingman**" deb uqdirmoqda

**Somon yo'li** – Bolaning kelajak yo'llari

**Yulduzlar** – bolaga baxtdan zar sochmoq istab porlamoqda.

**5-sandiqchada "Ifodali o'qish" "Eng chiroyli ifodali o'qish"** asosida o'quvchilar malakasi tekshiriladi.

**Uyga vazifa:** O'quvchilarning yozma savodxonligi va so'z boyligini boyitish maqsadida "Nido" dostonidagi bolaga yoki asar muallifiga va "**Xotira maydoni**" taassurotlari asosida maktub yozish topshirig'i beriladi.

Yuqorida qayd etilgan metod boshqa shoir va yozuvchilar ijodi uchun ham qo'llasa bo'ladigan metod.

Bu bilan o'quvchi ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga, boshqa fanlar bilan uzviy ishlashga, yozma savodxonligini boyitishga va tanqidiy fikrlashga o'rgatiladi.

O'ylash, fikrlash, taqqoslash, fanlar bog'liqligini idrok qilish, o'z fikrini mustaqil bayon etishdan cho'chimaslik, vaqtga rioya qilish kabi jihatlar har bir mashg'ulot uchun o'ta muhimdir.

"**Nido**" dostoni tarix, geografiya, matematika, tarbiya, astronomiya kabi fanlar bilan birga sog'inch, mehrga tashnalik, ishonch, umid, oilaviy muhit, davr, jamiyat va avtobiografik xarakterga ega, shuningdek, insonparvarlik, Vatanparvarlik, odamiylik kabi jihatlar ham mavjud asar hisoblanadi. Asarni o'rganishda bola ruhiyati, qiziqishi dunyoqarashi inobatga olinishi bilan ham muhimdir.

**Dilbar NORMURODOVA,**
**Termiz shahridagi 11-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

**Erkin VOHIDOV**

# "O'zbegim" qanday paydo bo'lgan?

Mumtoz she'riyatga muhabbat menda erta uyg'ondi. Maktab yoshidan G'ayratiy to'garagiga qatnab bu fozil insondan Navoiy, Fuzuliy, Bedil g'azallarini ko'p eshitganman. O'zim tarbiya topgan tog'am xonadonidagi ziyoli shaxslar suhbati ham shuurimda iz qoldirgan.

G'azal yo'lidagi ilk mashqlarim talabalik yillariga to'g'ri kelgan, universitet devoriy gazetasida e'lon qilingan edi. "Lola", "G'uncha", "Qaro qoshing" kabi aruz vaznidagi she'rlar bamisoli "Po'lat", "Kamtarlik haqida" singari barmoq vaznidagi qatralardek meni tengdoshlarim o'rtasida tanitgandi. Lekin to 1965-yilgacha, ya'ni to'rtta she'riy kitob muallifi bo'lguncha aruz bilan jiddiy shug'ullanmadim. G'azal yoshlar orasida urf emasdi. Aruzga keksalar she'riyati deb qarash bor edi.

1965-yil nashriyot rejasiga mening yangi she'riy to'plamim kiritildi. Unga turli yillarda yozilib avvalgi kitoblardan joy tegmay qolgan o'nga yaqin g'azallarni qo'shmoqchi bo'ldim. Lekin muharrir Ibrohim G'afurov e'tiroz bildirdi. "Avvalo, – dedi u, g'azallar bu kitobga ruhan yopishmay turibdi. Qolaversa, yangi g'azallar yozib kelajakda bir devon tuzsangiz ko'ngildagi ish bo'lardi".

Bu fikr menga ham ma'qul keldi. "Mening yulduzim" qo'lyozmasini bosmaga topshiriboq yangi g'azallar yozishga kirishdim.

O'sha kunlar hayotimning eng shirin, baxtli damlari edi. Kunda, kunora bir g'azal qog'ozga tushadi. Do'stim Ibrohimjonga o'qib beraman. Nozikfahm munaqqid satrlar ortidagi ishoralarni anglab zavqlanadi, tobiga yetmay qolgan baytlar ustida bahs qiladi. Quvonamiz, tortishamiz, tashbehlar olami, go'zallik olamini sayr etamiz. Go'yo biz uchun dunyoda faqat she'riyat bor, nafosat bor...

Bu xushnud kunlar yana bir muddat davom etganda balki oltmish oltinchi yilda "Yoshlik devoni" nashr etilgan bo'lardi. Lekin o'sha yil erta bahorda Toshkentda yuz bergan kuchli zilzila bizni g'azalning musaffo osmonidan to'zonli yerga olib tushdi. Shaharga vayronlik, fojialar keltirgan bu ofat ruhiyatimizni ham larzaga soldi. G'azal yozib turgan qalam uzluksiz silkinishlar vahimasi, iztirobli manzaralar tasviriga ko'chdi.

***Chiroyli qofiya, jarangli nisbat,***
***Go'zal tashbehlarga yo'q edi fursat.***
***Zudlik kerak edi, kutardi zamon,***
***Palatka ichida tug'ildi doston.***
***Fikrlar beniqob, yalang tuyg'ular,***
***Chang bosgan daftarga yozildi bular…***
***Yo'q, bu doston emas, bular barchasi***
***Zilzilada ko'chgan she'rlar parchasi.***

Kuni kecha yozilgan aruziy baytlar bilan ushbu satrlarni solishtirgan kishi ularni bir odam bitganiga sira ishonmaydi. Ochig'i, o'zim ham ishonmayman.

Hayot bilan ijodning uyg'unligi shu bo'lsa kerak. Yurtingda shiddatli hodisalar yuz berib turganda issiq uyda gul-u bulbullarni she'rga solib yotolmas ekansan. Zavq, ilhom, ehtirosdan ham kuchliroq tuyg'u bor ekanki, uni burch deb ataydilar va barchamiz shu tuyg'uning asirimiz.

Shunday qilib, "Yoshlik devoni" tortmaga tashlanganicha ikki yilga yaqin "dam olib" yotdi. Qolgan ishga qor yog'ar deb shuni aytadilar. Faqat oltmish yettinchi yil oxirlarida yana turkum g'azallar yozib devonga nuqta qo'ygandek bo'ldim. "Devon" so'zi, albatta, majoziy ma'noda. Mumtoz she'riyatda devon yuzlab g'azal, muxammas va boshqa janrlarda yozilgan asarlar majmuasi bo'lgan qalin kitob bo'ladi. Men tuzgan "Yoshlik devoni" esa mo'jazgina cho'ntakbop kitobcha, devonning soyasi edi.

Kitobchaga nuqta qo'ygandek bo'ldim-u, lekin yana nimadir kerakday, unga o'zak bo'ladigan bir narsa yetishmayotgandek tuyulardi.

Izlaganimni devonlarning podshosi bo'lgan "Xazoyin-ul ma'oniy"dan topdim:

***Menga shohlar xil'atikim, el tamosho qilg'ali***
***O'zbakim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.***

"O'zbegim" radifli qasida shu tariqa dunyoga keldi. 1968-yil yanvar oyining oppoq qorli kunlari Do'rmon ijod bog'ida u qog'ozga tushgan.

Xalq qismatining bu qisqagina she'riy bayoni o'zimning ham kelajak qismatimni belgilashi, menga dovrug' va quvonchlar barobarida ko'p iztiroblar keltirishini o'ylabmidim?!

Erkin Vohidov tavalludining 85 yilligiga

# Erkinona latofat, vohidovcha mahorat

*Menga Pushkin bir jahon-u*
*Menga Bayron bir jahon,*
*Lek Navoiydek bobom bor,*
*Ko'ksim osmon, o'zbegim.*

Har bir o'zbekning ushbu jumlalarni o'qiganida yuragi cheksiz faxr va iftixorga to'ladi. Men ham har safar bu she'rni takrorlaganimda Navoiyga bo'lgan katta ehtirom Erkin Vohidovga bo'lgan ehtirom bilan uyg'unlashib ketadi. Nazarimda, Navoiyga zamondoshlarimizdan hech kim bunchalik go'zal va yuksak baho bera olmagan bo'lsa kerak. Hayratlanaman... Erkin Vohidovning ajoyib so'z o'yinidan hayratlanaman. Pushkin va Bayronning hurmatini joyiga qo'yib, Navoiyni ulug'lash faqat Erkin Vohidovning qo'lidan keladi, menimcha. Buning uchun ijodkor katta iste'dod va mahorat sohibi bo'lish bilan birga o'tkir aql va chinakam insoniy madaniyat egasi bo'lishi lozim. Mazkur she'rdagi kabi jasorat va latofat shoirning barcha she'rlarida aks etadi. Xususan, "Uyatchanlar", "Dangasalar", "Zamonaviy shum bola", "Majlis qiling" singari o'tkir satirik she'rlarida bu holat yaqqol seziladi.

Erkin Vohidovning merosi mana shunday latofatli she'rlar bilan birga latofatli so'z boyligi bilan ham ahamiyatlidir. Albatta, Gyote va Yeseninni o'zbekcha gapirtirgan ijodkor juda katta so'z boyligiga ega bo'lishi talab etiladi. Ijodkor atoqli shoir, shu bilan birga zarrabin olim ham edi. Uning she'rlarini sinchiklab o'qigan inson shoirning arab, fors, rus va hatto ingliz tilini ham mukammal bilganini his qiladi. Birorta so'z yo'qki, noo'rin ishlatilgan bo'lsin. "So'z latofati" asari ham uzoq yillik kuzatish va tajribaning samarasi o'laroq dunyoga kelgani, shubhasiz. Shu bilan birga Erkin Vohidov o'zbek tiliga yangi so'zlar olib kirgan ijodkor sifatida ham alohida hurmatga loyiq.

"Tilni boyitish keng xalq ommasidan tashabbuskorlikni, olim-u mutaxassislardan ijodkorlikni, yangi so'zni hayotga kirituvchi mutasaddilardan xayrixohlikni, o'zbekchalashtirishga bo'lgan qat'iy irodani talab etadigan katta ***Vataniy*** ishdir", deydi shoir "So'z latofati" asarida. Vataniy so'ziga e'tibor bering. Nima uchun shoir Vatanparvar ishdir emas, vataniy ishdir demoqda. Nazarimda, shoirga vatanparvar so'zi juda ko'p ishlatilgan va ohori to'kilgan so'zdek tuyilgan bo'lsa kerak. Chindan ham, so'z qanchalar ko'rkam bo'lmasin, ko'p va noo'rin ishlatilaversa, siyqasi chiqqan tangadek o'z qiymatini yo'qotadi. Afsuski, bugun Vatanparvar so'zining boshiga ham shu kulfat tushgan. Shoir sharti ketib, parti qolgan so'zning o'rniga yangi, salmoqdor so'zni qo'llaydi va o'zbek tilining yosh so'z bilan boyishiga o'z hissasini qo'shadi.

Xuddi shu asarda "zangin" so'zi ham uchraydi: "Asliyatga qaytishning ko'lamli jarayonida ***zangin*** va rangin ona tilimiz faol ishtirok etayotganidan quvondim". Sinchi shoir rangin so'zining rang-barang ma'nolari haqida o'z asarida batafsil ma'lumot beradi. Men hozir zangin so'ziga to'xtalmoqchiman. Zangin so'zining asosi zang bo'lib, "jarang", "qo'ng'iroq" ma'nolarini anglatadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jaranglab turgan ovoz "zang" deyiladi. Bunga misol qilib hamma yaxshi biladigan maktab qo'ng'irog'ining ovozini keltirishimiz mumkin. Ijodkor zangin so'zini qo'llash orqali o'zbek tili dunyo tillari ichida hamon qo'ng'iroqdek jaranglab turibdi, demoqda. Buning nomi kamtarona faxr deyiladi. Qadimda, hatto shunday so'z o'yiniga qurilgan faxriya degan badiiy san'at turi bo'lgan. Shu chog'da Alisher Navoiyning quyidagi misralari yodimga tushdi:

*Olibman hukm-u farmonimga oson,*
*Cherik chekmay Xitodan to Xuroson.*

Erkin Vohidov "Abdulla Qahhor maktabi" vakillaridan biri bo'lgan. Abdulla Qahhor yosh shoirni g'oyat hurmat qilgan, unga to'g'ri yo'l ko'rsatgan. Shogirdini rag'batlantirish maqsadida, hatto bir necha hikoyalariga yosh shoir she'rlarini epigraf qilib oladi. Erkin Vohidov ustozini hamisha katta ehtirom bilan eslaydi. Mana shoirning shunday xotiralaridan biri: "Abdulla Qahhor bilan Kibriyo Qahhorovaning turmushi oddiy er-xotinlik munosabatidan yuksakroq edi. Ko'ngil yaqinligi, ijodiy hamkorlik o'z yo'liga. Ikki so'z ustasining suhbatlari lutfga, ***tutilmagan*** gaplarga, go'zal qochirimlarga boy bo'lardi". Tutilmagan so'zini eshitib, xayolingizga kutilmagan so'zi kelishi tabiiy. Lekin kutilmagan so'zi endi kutilgan so'z emas. Abdulla Qodiriy asarida kutilmagan so'zi kutilmagan baxt olib kelgandir, lekin Erkin Vohidovgacha u o'zining siyohini ancha yo'qotdi. Shuning uchun ijodkor kutilmagan tutilmagan so'zini ishlatadi va bizni yana bir bor tutiltirib qo'yadi. Ruscha "svejiy" so'zini tarjima qilganda o'zbekchada bir qancha ma'nolarni anglatadi. Tutilmagan so'zi ham Erkin Vohidovning mana shunday svejiy so'zi hisoblanadi. Har kim bu matnni o'qib, o'zicha tushunadi, zavqlanadi.

Kimnidir sevsang, undagi yomon illatlar ham fazilatdek tuyiladi. Aniqrog'i, illatini ham fazilatini sevgandek sevasan. Erkin Vohidov ham o'zbek xalqini jon-u dili bilan sevgan. Sevganda ham barcha ulug'vorligi-yu nuqsoni bilan sevgan. Bu nodonlik emas. Bu samimiy qalbning samimiy sevgisi, deyiladi. Shoir o'zbek xalqini yapon xalqi bilan qiyoslar ekan, o'zbeklarning kamchiligini go'yo fazilat sifatida tilga oladi: "Yaponlar ranglarga juda e'tiborli. Bizning ham ulardan kam joyimiz yo'q. Yurtimiz ularning yurtidan o'n hissa ranginroq, she'riyatimiz o'n karra boyroq. Elimizga o'n barobar ko'p ne'mat ato etgan Tangrimiz yapondagi hafsala va ***urinchoqlik***ning o'ndan birini bizga bersa edi...".

Yuqoridagi *urinchoq* so'zi *shijoat* so'zining ma'nodoshi hisoblanadi. Lekin *shijoat* so'zi o'zlashma so'z, buning ustiga mazkur gapda haqoratomiz ma'no kasb etib qolishi mumkin. Shuning uchun so'z sinchisi bo'lgan Erkin Vohidov sof o'zbekcha shaklni topadi, aniqrog'i, o'zbek tilini yangi so'z bilan boyitadi. *Urinchoq* so'zi o'zida erkalash, suyish ma'nolarini ham ifodalayotganini sezgan bo'lsangiz kerak. Bu kabi yoqimli tanqid qilish xalqini erkalab suyadigan Erkin Vohidovninggina qo'lidan keladi.

Hazrat Alisher Navoiy o'z asarida insonning hayvondan farqi iymon ekanini aytadi:

*Kimki jahon ahlida inson erur,*
*Bilki, nishoni anga iymon erur.*

Chindan ham, insonning qiymati uning iymoni bilan belgilanadi. Ikki insonning bir-biriga bo'lgan munosabatida ham ularning naqadar iymonli yoki iymonsiz ekanligi yotadi. Muqaddas kitob Qur'oni Karimda ham iymonli insonlar birodar kabi ekanligi ta'kidlanadi. Erkin Vohidov ham Alisher Navoiy ijodidan, Qur'oni Karimdan juda yaxshi xabardor bo'lgan, albatta. Yo'qsa, "Tojik birodarimga"(e'tibor bering, birodarimga deyilyapti, ukamga yoki akamga emas) quyidagi misralarni yozmagan bo'lardi:

*Biz ikki yondosh elga,*
*Qarindosh, qondosh elga.*
*Jondosh, iymondosh elga,*
*Farzand bo'lamiz, do'stim.*

Iymondosh – bu topildiq. Darvoqe, topildiq so'zining o'zi ham Erkin Vohidovning topildig'i hisoblanadi. Dindosh so'zi bor edi. Lekin *iymondosh* so'ziga birinchi marta duch kelishim. Nega shoir iymondosh so'zini tanladi. Chunki insonning iymondan ustun narsasi yo'q. Iymon hatto jondan ham muqaddas. Yondosh, qarindosh, qondosh, jondosh, iymondosh so'zlarida darajaning borgan sari yuqorilab borayotganini his qilasiz. Birodar tojik xalqi bilan o'zbek xalqi uzoq asrlardan buyon yonma-yon, jonga-jon bo'lib yashab kelmoqda. Garchi boshqa til va boshqa millat bo'lsa-da, bu ikki xalq et va tirnoq kabi biri-biriga yaqin ekanini shoir birgina *iymondosh* so'zi bilan ifodalab beradi. -dosh qo'shimchasiga ham shu yerda izoh berib ketsam, maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shimchalar ham xuddi insonlar kabi ijobiy va salbiy xarakterga ega bo'ladi. Bu holat tilshunoslikda emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik deyiladi. Masalan, -parast(mansabparast), -kash(pastkash), -boz(qimorboz) singari salbiy, -li(gulli), -chan(yashovchan), -don(bilimdon) singari ijobiy qo'shimchalarni keltirishimiz mumkin. -dosh qo'shimchasi esa hamisha so'zlarga qo'shilib, ijobiy so'zlar hosil qiladi. Vatandosh, dildosh, yurakdosh, orqadosh... Erkin Vohidov buni chuqur anglagan holda iymon so'ziga -dosh qo'shimchasini qo'shib, o'zbek tili leksikasiga yangi so'z olib kiradi.

Erkin Vohidov Farg'onada tug'ilgan. Farg'ona esa askiya vatani hisoblanadi. Ijodkor she'rlarida farg'onacha askiyani, so'z o'yinlarini istalgancha topishimiz mumkin. Sinchkov kitobxon ham anglolmaydigan ayrim so'z o'yinlari borki, ularni anglash uchun o'qirmandan juda katta zakiylik, adabiy did talab etiladi.

*Tohirni halitdan tinch qo'ymas qizlar,*
*Yarim tunda qaytar uyga hamisha,*
*"Uncha bo'lmasak ham ilmda bizlar,*
*Ammo kuchli edi odob, andisha.*
*Birovning qiziga sal qarab qo'ysak,*
*Bizlar atalardik sho'x-u beboshlar.*
*Ba'zi kinolarmi buzmoqda andak,*
*Kapalakmijozroq hozirgi yoshlar...".*

Latofatli so'z sohibi Erkin Vohidov eng qo'pol so'z o'rniga ham eng yumshoq so'z topa oladi. Bu holat she'rning ohangdorligiga ham, ma'nosiga ham putur yetkazmaydi. Aksincha, badiiylikni, ta'sirchanlikni oshirishga cheksiz xizmat qiladi. Ijodkor shu darajada ichki madaniyat sohibiki, kapalakmijoz so'zi ham unga og'ir so'z bo'lib tuyiladi va uni yengillashtiradi: kapalakmijozroq! Ha, bu farg'onaliklarga xos aytmasdan aytish, so'kmasdan so'kish, deyiladi. Bunday she'rni faqat Farg'onada tug'ilgan ijodkorgina yoza oladi.

Erkin Vohidov shoir sifatidagi missiyasini yurakdan anglagan edi. Boshqa shoirlarga ham shunday yuksak talab qo'ygani aniq. Shoir shoirlik nomiga dog' tushirib yurgan kimsalarni shoir deyishga tili bormaydi. Adabiyotga xiyonat qilgan, she'riyatni sotgan so'zfurushlarni ijodkor ***she'rboz, baytyozar, she'rparast*** nomlari bilan ataydi. Bu so'zlar go'yo sharafsiz, isnodsiz so'zlarining ma'nodoshi yanglig' yangraydi. "No'noq shoirlar" she'rida bunday shoirlarni yengil kulgi ostiga oladi:

*Biz bir zamon muharrir bo'ldik,*
*Qismat ekan, bo'ldik noshirlar.*
*O'lsak yomon she'rlardan o'ldik,*
*Ado qildi no'noq shoirlar.*
*Qo'lyozmalar o'qirdik dil g'ash,*
*Ko'rgulikdan ohlar urardik.*
*So'zi chalkash,*
*O'zi janjalkash*
*She'rbozlardan qochib yurardik.*

Buyuk adib ayrim istilohlar o'rniga yangi so'zlarni muomalaga kiritadi. Masalan, kalendar so'zi o'rniga ***yiloykun***, iyeroglif o'rniga ***tasvirxat*** so'zlarini ishlatadi. Bu ham ijodkorning o'zbek adabiy tiliga qo'shgan ulkan hissasi hisoblanadi. Bularning barini umumlashtirib erkinona latofat, vohidovcha mahorat, desak to'g'ri bo'ladi.

Yuqorida men keltirgan misollar kichik izlanishlarim, xolos. Bunday so'zlarni – topildiqlarni shoir ijodidan yana o'nlab, yuzlab topishimiz mumkin. Xudo nasib etsa, yana bu izlanishlarni davom ettiramiz. Maqolani ustoz Erkin Vohidovning quyidagi so'zlari bilan tamomlashni xohladim: ***"Biz ilm-u ijod ahli qancha talashib tortishmaylik, bir fikrda hammamiz yakdilmiz: til yolg'iz mutaxassislarning mulki, xatlab berilgan yeri emas. Uni boyitish, go'zal qilish, xas-xashaklardan tozalab borish – umumxalq ishidir".***

Davlatjon KARIMOV,
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi,
"Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi

Ushbu test topshiriqlari va savollari amaldagi 5–11-sinf ona tili darsligi asosida tuzildi.

# "Ma'rifat" repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 9-varianti

### ONA TILI

**1. Shunday yurt...a yashayot...animizdan fa...rlansak arziydi.**

***Ushbu gapda tushirib qoldirilgan tovushlar nutq a'zolari ishtirokiga ko'ra qaysi guruh(lar)ga mansub?***

A) til undoshlari
B) lab undoshlari
C) til va bo'g'iz undoshlari
D) lab va til undoshlari

**2. Egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tovush o'zgarishi ro'y bermaydigan so'zlar qatorini belgilang.**

A) qishloq, tilak B) ittifoq, ishtirok
C) o'rtoq, do'stlik D) qayiq, kurak

**3. Qaysi gapda uslubiy xatolik mavjud?**

A) Iste'dodli o'quvchilar ichida do'stlarim borligidan fahrlanaman.
B) Yomg'irli kunda raqsga tushishni yaxshi ko'radigan yosh jajji bir tovus bor edi.
C) Quyoshning bir yillik harakati yo'lida joylashgan burchlar o'n ikkitani tashkil etadi.
D) Odamlarning 10 foizi noyob talantga ega bo'ladi.

**4. "Assalomu alaykum, akajon! Avvalo, inson uchun suv va havodek zarur bo'lgan sog'liqlaringiz yaxshimi? Yigitlik burchingizni hormay ado etyapsizmi? Bizdan so'rasangiz, rahmat! Hammamiz sog'-salomatmiz...".**

***Ushbu matn qays ish qog'ozi turiga oid?***

A) ma'lumotnoma B) bildirishnoma
C) e'lon D) xat

**5. Qaysi gapda yasama so'z qatnashmagan?**

A) Mashina yigitcha turgan yerga kelib to'xtadi.
B) Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroyli.
C) Beshikdan qabrgacha ilm izla.
D) Boyliging ko'p bo'lmasa ham, biliming ko'p bo'lsin.

**6. Nuri giloslar ostiga qo'yilgan panjaralari ko'k bo'yoq bilan sirlangan katta yog'och karavotga qalin ko'rpacha yoyib, yostiqqa yonboshlab o'tirar edi.**

***Ushbu gapdagi yasama so'zlar miqdorini aniqlang.***

A) to'rtta B) uchta
C) ikkita D) bitta

**7. U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da, chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit ancha yergacha gandiraklab borib tizzalab qoldi.**

***Ushbu gapda ravishning qaysi ma'no turlari ishtirok etgan?***

A) sabab va maqsad ravishlari
B) holat va payt ravishlari
C) holat va miqdor-daraja ravishlari
D) o'rin va miqdor-daraja ravishlari

**8. O'zingga o'zingni maqtagandan qo'rq.**

***Ushbu maqolda olmoshning tuzilishiga ko'ra qaysi turi qatnashgan?***

A) juft olmosh B) qo'shma olmosh
C) takroriy olmosh D) sodda olmosh

**9. Ismlarning munosabat shakllari qaysi javobda noto'g'ri berilgan?**

A) ko'plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma'nolarini bildiruvchi qo'shimchalarga ega bo'lgan shakllar
B) egalik shakllari, kelishik shakllari
C) -man, -miz, -san, -siz, -dir qo'shimchalari
D) bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq so'zlari

**10. Qaysi javobda vazifadosh modal so'zlar berilgan?**

A) darhaqiqat, afsuski
B) umuman, ehtimol
C) albatta, shekilli
D) koshki, masalan

**11. Men insoniy ahloqning asl mohiyatini anglab yetdim.**

***Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi imloviy xatolikka uchragan?***

A) to'ldiruvchi B) ega
C) aniqlovchi D) hol

**12. Quvonch va shodlikdan tili aylanmas edi.**

***Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi uyishgan?***

A) to'ldiruvchi B) ega
C) aniqlovchi D) hol

**13. Odam borki, odamlarning naqshidir, Odam borki, hayvon andin yaxshidir.**

***Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga mansub?***

A) ergashgan qo'shma gap
B) bog'langan qo'shma gap
C) bog'lovchisiz qo'shma gap
D) ko'chirma gapli qo'shma gap

**14. "Hunari va odobi bo'lmagan kishidan, – deydi Mahmud Koshg'ariy, – baxt va davlat ketadi".**

***Qaysi javobda ko'chirma gapning joylashuvi to'g'ri berilgan?***

A) M: "K", – m.
B) "K, – m, – k".
C) "K", – m.
D) M: "K".

**15. Ish vaqtida ayyor osh vaqtida tayyor bo'lib sirting yaltirab iching qaltirab turib tirikman degandan ko'ra o'lim afzal.**

***Ushbu gapning necha o'rniga vergul qo'yiladi?***

A) to'rtta B) uchta
C) ikkita D) bitta

*Ushbu test topshiriqlari va savollari amaldagi 5–11-sinf ona tili darsligi asosida tuzildi.*

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi

### MATEMATIKA

**16. Bir shahardan ikkinchisiga uch turdagi yo'l orqali borish mumkin: quruqlik, havo yoki dengiz orqali. Agar bu shaharlar orasida 2 xil quruqlik yo'li, 3 xil havo yo'li va 3 xil dengiz yo'li o'tkazilgan bo'lsa, birinchi shahardan ikkinchisiga necha xil usulda borish mumkin?**

A) 8 B) 30 C)10 D) 25

**17. Uch kishidan ikki kishilik guruhni necha usulda shakllantirish mumkin?**

A) 6 B) 12 C) 15 D) 3

**18. 9284776 – shu sonning birlar va minglar xonasidagi sonlar yig'indisining ikkilangani nechaga teng?**



A) 36 B) 14 C) 7 D) 20

**19. Ikki sonning nisbati 11:13 kabi nisbatda, ularning eng katta umumiy bo'luvchisi 5 ga teng. Bu sonlarning yig'indisini toping.**

A) 120 B) 125 D) 130 C) 150

**20. Qopdagi yong'oqlarni 2 tadan, 3 tadan, 5 tadan, 6 tadan va 7 tadan sanaganda har doim bitta yong'oq ortib qolgan bo'lsa, bu qopda eng kamida qancha yong'oq bor?**

A) 61 B) 71 C) 211 D) 141

**21. Ko'paytiring:** $(-\frac{12}{14})\cdot(\frac{7}{2})\cdot 100\cdot\frac{1}{5}$

A) -2 B) 4 C) -11 D) -60

**22. Qaysi juftlik o'zaro tub sonlardan iborat?**

A) (6; 14) B) (22; 33)
C) (21; 35) D) (10; 21)

**23. a68b soni 5 ga va 9 ga qoldiqiz bo'linsa, a ning qiymatini toping.**

A) 2 B) 3 C) 4 D) 6

**24. 1;2;4;5;6 raqamlar yordamida nechta 3 xonali son tuzish mumkin?**

A) 125 B) 15 C) 343 D) 60

**25. Berilgan jadvaldan foydalanib m+n-k ning qiymatini toping?**

| : | –6 | –3 | 2 |
|---|---|---|---|
| –12 | m | 4 | –6 |
| 30 | –5 | n | k |

A) 7 B) 12
C) -7 D) - 12

**26. Hovuzni 1-quvur 18 soatda to'ldiradi, 2-quvur esa 36 soatda bo'shatadi. Ikki quvur bir vaqtda ochilsa, hovuz qancha vaqtda to'ladi?**

A) 36 B) 18 C) 45 D) 40

**27. -2·[-4-2·(-3-2·(-4))] ning qiymatini toping.**

A) -28 B) -12 C) -9 D) 28

**28. Agar AB kesmaning uzunligi 20 cm.ga teng bo'lsa, CB kesmaning uzunligini toping.**




*10 cm*

A) 4 cm B) 12 cm
C) 16 cm D) 15 cm

**29.** $\frac{\overline{ab}+\overline{bc}+\overline{ca}}{\overline{aa}+\overline{bb}+\overline{cc}}$ **kasrning qiymatini toping.**

A) 1 B) a+b C) a+b+c D) 11

**30.** $\frac{2}{33}$ **sonini cheksiz davriy o'nli kasr ko'rinishida ifodalab, verguldan keyingi 111-o'rinda turgan raqamini toping.**

A) 6 B) 0 C) 4 D) 3

*Keyingi variantda "Ketma-ketlik, qonuniyat, mantiq, algoritm" mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 5–11-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.*

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

### TARIX

**31. O'rta Osiyoning janubida qaysi davrda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik vujudga kelgan?**

A) so'nggi paleolit B) mezolit
C) neolit D) eneolit

**32. Makedoniyalik Aleksandrning rafiqasi bo'lgan so'g'diyonalik qizning ismi qaysi javobda berilgan?**

A) Statira B) Ravshanak
C) Dugova D) Deidamiya

**33. Ilk o'rta asrlarda qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar nima deb atalgan?**

# “Ma’rifat” repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 9-varianti

A) chokar B) kadivar
C) kashovarz D) barzikor

**34. 718-yilda O‘rta Osiyoning qaysi shahridan hadya tariqasida Xitoyga dubulg‘a yuborilgan?**
A) Buxoro B) Choch
C) Eloq D) Samarqand

**35. Qaysi sulola davrida Movarounnahr shaharlari o‘ndan ortiq darvozali kattagina hunarmandchilik markazlariga aylangan?**
A) somoniylar B) shayboniylar
C) anushteginiylar D) qoraxoniylar

**36. “O‘z davrining Ptolomeyi” nomi bilan shuhrat qozongan shaxsni aniqlang.**
A) G‘iyosiddin Jamshid B) Qozizoda Rumiy
C) Ali Qushchi D) Mirzo Ulug‘bek

**37. Quyidagi qaysi tarixiy shaxs Eron hukmdori Shoh Abbos bilan jangda halok bo‘lgan?**
A) Boqi Muhammad B) Mironshoh Mirzo
C) Abu Said Mirzo D) Din Muhammad

**38. XIX asrning 40-yillarida Qo‘qon xonligini qaysi davlat bosib olgan?**
A) Rossiya imperiyasi B) Xiva xonligi
C) Katta Juz xonligi D) Buxoro amirligi

**39. Quyidagi qaysi shahar 1723-yilda Buxoro amirligidan ajralib chiqqan?**
A) Qarshi B) Samarqand
C) Balx D) Farg‘ona

**40. Quyidagi qaysi asar Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayoniga bag‘ishlangan?**
A) “Fathnomayi Sultoniy”
B) “Husn-u Dil”
C) “Tarixi jahonkushoy”
D) “Gulshan-ul-muluk”

**41. Turkistonda quyida berilgan qanday muassasalar XIX asrning ikkinchi yarmidan barpo etila boshlangan?**
A) milliy teatrlar
B) ayollar artellari
C) diniy madrasalar
D) rus-tuzem maktablari

**42. Qoraqalpoqlarda yer solig‘i nima deb atalgan (XIX asr)?**
A) qozon puli B) kalon
C) xiroj D) solg‘ut

**43. Xiva xonligi va Chor Rossiyasi o‘rtasida nechanchi yilda Gandimiyon shartnomasi imzolangan?**
A) 1873-yilda B) 1868-yilda
C) 1875-yilda D) 1861-yilda

**44. 1950-yilda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimiga kim tayinlangan?**
A) Usmon Yusupov
B) Amin Niyozov
C) Nuritdin Muhitdinov
D) Yo‘ldosh Oxunboboyev

**45. 2007-yilda quyidagi qaysi shaharning 2000 yillik yubileyi o‘tkazilgan?**
A) Samarqand B) Marg‘ilon
C) Toshkent D) Termiz

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti magistranti

**ONA TILI**

| S | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| J | A | B | C | D | A | B | C | D | A | B | C | D | A | B | A |

**MATEMATIKA**

| 16 | 17 | 18 | 19 | 20 | 21 | 22 | 23 | 24 | 25 | 26 | 27 | 28 | 29 | 30 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| A | A | D | A | C | D | D | C | A | A | A | D | A | A | B |

**O‘ZBEKISTON TARIXI**

| 31 | 32 | 33 | 34 | 35 | 36 | 37 | 38 | 39 | 40 | 41 | 42 | 43 | 44 | 45 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| D | B | C | D | A | C | D | D | B | D | D | D | A | B | B |

# Tushunarli nazm va aruz

O'zbek adabiyotining zabardast vakili, faylasuf shoir Abdulla Oripov zamondosh, yelkadoshi Erkin Vohidovni: “Qadrdonim va safdoshim Erkin Vohidov chindan oltin iste'dod sohibidir. Shoirimizning ovozini boshqa biron qalamkash takrorlashi sira mumkin emas”, deya ta'riflagan edi.

Erkin Vohidovning samimiy va dilbar she’riyati, xushohang g‘azallarini sevib o‘qigan, chin she’r ruhini his qilgan borki, ustoz shoirning ijodiy olamiga talpinaveradi.

Shoir o‘tgan asrning 70-yillarida “Hozirgi yoshlar” she’rida shunday yozadi:

*Eslar har yon olov, o‘t ichra dunyo,*
*Majruh gavdalar-u uzilgan boshlar.*
*“Yurt tinch bo‘lsin, bir gap*
*bo‘lsa mabodo,*
*Bardosh berarmikan hozirgi yoshlar!”*

Albatta, bunda ijodkor o‘zi bosib o‘tgan mashaqqatli yo‘lni xotirlab, zamona yoshlarining hayotga biroz yengil qarashi, davr bir aylanib, o‘sha kunlar qaytgudek bo‘lsa, bu yoshlar bardosh bera olarmikan, degan kuyinchak o‘y bilan o‘rtanadi. Ularga achinish bilan birga rahmi ham keladi.

She’r avvalidagi ginalar, avvalo, sergaklikka chorlov, o‘z navbatida o‘rinli tanqid ham edi. Lekin she’r davomida yoshlarning yutuqlarini ham keltiradi:

*Bizlar haftiyakdan boshlagan edik,*
*Bular X bilan igrikdan boshlar.*
*Durust, zehni o‘tkir, qadami tetik,*
*O‘zimizga tortdi hozirgi yoshlar!*



Umuman shoir mavzu tanlashda o‘ylanib qolmaydi. Vatan, ota-ona, muhabbat mavzularida juda barokatli ijod qilgan. O‘z tengqurlari hamda o‘zidan katta ijodkorlarga behad, baland hurmatda bo‘lgan.

*“Xalqqa ayting men:*
*Men aslo o‘lganim yo‘q”,*

deb yozilgan ustozi Hamid Olimjon she’ridan epigraf olingan Zulfiya Isroilovaga bag‘ishlangan ustoz nomidan go‘zal she’r yozadi:

*Olis uch she’riy samoda,*
*Men uchun ham yasha, kuyla,*
*shoirman!*
*O‘zing aytganingdek: yorug‘*
*dunyoda,*
*Sen hayot ekansan –*
*hayotman men ham!*

Navoiyona ruhdagi g‘azallar ham Erkin Vohidov ijodida talaygina:

*O‘ltirar sochin tarab yor,*
*chashmaning o‘trusida,*
*Chashma o‘z aksin ko‘rar*
*yor chehrasi ko‘zgusida.*

G‘azal deb o‘zi bilar-bilmas so‘zni qo‘llaguvchilar, postmodernizm deya aruz va barmoqni aralashtirib, qorishma hosil qilayotganlar mana shu qolipdan, klassikaga yo‘g‘rilgan sof aruziy misralardan o‘rnak olishsa bo‘lmaydimi, deging keladi.

Erkin Vohidov siymosining barhayotligini mana shu tushunarli aruziy tizmalar-u, falsafiy, ishqiy she’riy ruknlar ta’minlab beradi deb o‘ylayman.

Erkin HOJIMUHAMMAD

***Usmanov Nosir Nurmanovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Kartoshka navlarining o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va urug'lik sifatiga siderat ekinlarni qo'llashning ta'siri" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, "Botanika" MFY, PSUYEAITI.
Tel/faks: (78) 159-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

***Gafurova Feruza Axrorovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Ayrim endokrinopatiyalari bo'lgan ayollarda klimakterik buzilishlarni davolash omillarining klinik-patogenetik asoslash(tibbiyot fanlari)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

***Babayev Yashin Amanovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chiligi ixtisosligi bo'yicha "O'rta tolali g'o'zaning tezpishar, yuqori mahsuldor va vilt kasalligiga bardoshli intensiv navlarini yaratish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi(seleksiya yutug'i(ixtiro patenti) asosida) Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020.Qx42.02 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 27-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salor shaharchasi, PSUYEAITI.
Tel/faks: (78) 150-62-84; e-mail: paxtauz@mail.ru

***Turayev Ruhiddin Amirqulovichning 06.01.10 — Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha "Sug'oriladigan yerlar monitoringini yuritish metodologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/30.12.2019.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.
Tel/faks: (71) 237-09-71, 237-54-79; e-mail: admin@tiiame.uz

***Jurayev Akbar Shavkatovichning 04.00.16 — Konchilik mashinalari ixtisosligi(texnika fanlari) bo'yicha "Gidravlik tizimlarning ishlashini takomillashtirish asosida karyer gidravlik ekskavatorlarning ekspluatatsion samaradorligini oshirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 210100, Navoiy shahri, Mahmud Torobiy ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com

***Turgayev Jambul Adilbayevichning 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Ekspluatatsion xossalari yaxshilangan kompleks modifikatsiyalangan beton" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v" uy,
TAQI, Arxitektura fakulteti.
Tel/faks: (71) 232-43-30, 234-15-11; e-mail: taqi_atmt@edu.uz

***Igamberdiyev Bunyod Gayratovichning 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Gips va qishloq xo'jaligi chiqindilari asosida kompozitsion list tarkibini ishlab chiqish va qo'llash" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v"uy,
TAQI, Arxitektura fakulteti.
Tel/faks: (71) 232-43-30, 234-15-11; e-mail: taqi_atmt@edu.uz

***Samadova Shahzoda Isoqovnaning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi(tibbiyot fanlari) bo'yicha "Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati qizil, yassi temiratki kasalligini kompleks davolashni takomillashtirish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

***Muhsinova Lola Anvarovnaning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi(tibbiyot fanlari) bo'yicha "Yuz nuqsonlari bilan tug'ilgan bolalarda tishlar chiqish muddati va tishlov shakllanishiga ta'sir etuvchi xavf omillari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

***Urazbayev Hikmatullo Ismatullayevichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda til portfoliosidan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

***Mambetkarimova Muslima Sadiratdinovnaning 14.00.09 — Pediatriya va 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosliklari bo'yicha "Epilepsiyasi bor onalardan tug'ilgan erta yoshdagi bolalarda salomatlik va nevrologik status holati xususiyatlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

***Maxmurov Alisherning 14.00.02 — Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Qalqonsimon, qalqonsimon oldi bezlari va diafiz suyak to'qimasining reparativ regeneratsiyasining o'zaro bog'liq struktur o'zgarishlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 14:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

***Mallayev Shuxrat Sherqulovichning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Yuvenil revmatoid artritning klinik nbn-genetik tavsifi va uning xronoterapiya natijalari prognozi(tibbiyot fanlari)" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

***Jalalov Baxromjan Begmurzayevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: cspi-kengash@umail.uz

***Xamdullayev Shuxrat Abduraxmonovichning 03.00.09 — Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha "Barg shakli turlicha bo'lgan g'o'za genotiplarining suv tanqisligiga moslashuvchanlik xususiyatlarining genetik asoslari" mavzusidagi(biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlislar zalida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz mahallasi,
Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.
Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

***Xasanova Guzaliya Marsovnaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Semizlik bilan kasallangan bolalarda kardiovaskulyar buzilishlarning klinik-diagnostik xususiyatlari va profilaktikasi(tibbiyot fanlari)" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

***Movlonova Sohiba Abdiqodirovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(kimyo) ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'lim muassasalarida azotli organik birikmalar mavzusini differensial yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-52-65, 262-73-48, 120-64-75;
e-mail: ptani-inst@icps.org.uz,ixrv@mail.ru

***Saydaxmetova Shaxnoza Ravshanbekovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(kimyo) ixtisosligi bo'yicha "Organik kimyoga oid tajribalarni o'rganish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-52-65, 262-73-48, 120-64-75;
e-mail: ptani-inst@icps.org.uz,ixrv@mail.ru

***Ilyasov Azizbek Baxtiyarovichning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Homilada xromosom va genetik kasalliklarni invaziv perinatal usul bilan aniqlash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi" davlat muassasasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.06.2020.Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-"a" uy.
Tel/faks: (71) 263-84-83; e-mail: info@uzaig.uz

***Saburov Xursand Mambetsaliyevichning 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida modifikatsiyalangan bog'lovchilar bilan ko'chuvchan qumlarning xossalarini yaxshilash va qo'llash texnologiyasi" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.***

Manzil: Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v" uy,
TAQI, Arxitektura fakulteti.
Tel/faks: (71) 235-43-30, 234-15-11; e-mail: devon@taqi.uz

## KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA

## TANLOV E'LON QILADI:

**I. "Muzeyshunoslik" kafedrasi**
- professor

**II. "Miniatyura va kitob grafikasi" kafedrasi**
- dotsent
- o'qituvchi

**III. "San'at tarixi va nazariyasi" kafedrasi**
- dotsent

**IV. "Chizmatasvir" kafedrasi**
- dotsent

**V. "Informatika va menejment" kafedrasi**
- dotsent
- katta o'qituvchi

**VI. "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va kasbiy ta'lim" kafedrasi**
- dotsent
- katta o'qituvchi

**VII. "Dizayn" kafedrasi**
- katta o'qituvchi

**VIII. "Libos dizayni" kafedrasi**
- katta o'qituvchi

**TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM ETILISHI LOZIM:**
- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxasi;
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
- ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi;
- kataloglar.

Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut Kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.

**Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy.**
**Murojaat uchun telefonlar: (71) 255-18-33, 255-98-39.**

## SMART XONA JIHOZLARINI YETKAZIB BERISH BO'YICHA E'LON

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi o'z tarkibida 40 talabaga mo'ljallangan zamonaviy smart xonani tashkil etish maqsadida zaruriy jihozlarni(mebel va texnika) yetkazib beruvchi kompaniyalardan takliflar qabul qilish boshlanganini e'lon qiladi.

Barcha qiziqish bildirgan kompaniyalar 2022-yil 1-yanvar kuni soat 17:00 gacha quyidagi manzilga elektron tarzda loyihada ishtirok etish haqida o'z istaklarini(kompaniya haqidagi ma'lumotlar bilan) yuborishlari kerak:

**100011, Toshkent shahri, Shayxontohur ko'chasi, 11-uy, O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi.**

**Murojaat uchun telefon: (71) 244-40-24;**
**e-mail: info@iiau.uz**

**Hurmatli Abduhomid TEMIROV!**



Sizni qutlug' 60 yoshingiz bilan muborakbod etamiz. O'ttiz yillik pedagogik, qariyb yigirma yillik direktorlik faoliyatingiz bizga namuna va ibrat maktabidir.

Xalq ta'limini yanada rivojlantirishda sizga sog'liq, uzoq umr, amalga oshirgan ishlaringizning huzur-halovati, rohatini ko'rib yurishingizni tilab qolamiz!

Qutlov

Yakkabog' tumani, Chaqar qishlog'idagi
56-maktab jamoasi


*Kadirova Gulnora Xasanovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo) ixtisosligi bo'yicha "Kreativ yondashuv asosida o'quvchilarda kimyoviy tajribalarni o'tkazish kompetensiyasini shakllantirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

*Qosimova Gulnoraxon Baxtiyorjon qizining 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Genroku davri adabiyotida an'ana va novatorlik(Ixara Saykaku ijodi)" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

*Dedaxanov Baxodirning 18.00.01 — Arxitektura nazariyasi va tarixi. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash ixtisosligi bo'yicha "Farg'ona vodiysi arxitekturasining qadimgi va boshlang'ich o'rta asrlardagi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi (arxitektura bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"V" uy.
Tel/faks: (71) 235-43-30, 234-15-11; e-mail: devon@taqi.uz

*Fayzullayeva Nodira Nayimovnaning 18.00.01 — Arxitektura nazariyasi va tarixi. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston tarixiy shahar markazlarida turarjoylarni saqlash va qayta tiklash usullari(Buxoro shahri misolida)" mavzusidagi(arxitektura bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"V" uy.
Tel/faks:(71) 235-43-30, 234-15-11; e-mail: devon@taqi.uz

*Davlatov Nodirjon Xayrullayevichning 04.00.05 — Paleontologiya va stratigrafiya ixtisosligi bo'yicha "Quljuktov tog'larining devon konodontalari va biostratigrafiyasi(O'zbekiston)" mavzusidagi(geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.41.01 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 14:00 dagi masofaviy(onlayn) majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100059, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 114-uy.
Tel/faks: (71) 250-92-15; e-mail: igirnigm@ing.uz

*Aytimbetov Nurmuxammed Zaxaratdinovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(fizika) ixtisosligi bo'yicha "Fizikadan laboratoriya ishlarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish metodikasi(oliy ta'lim muassasalari misolida)" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seytov ko'chasi, raqamsiz uy.
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75; e-mail: nkspi_info@edu.uz

*Tuxtabayeva Gulchehra Maxamadjonovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Gipertenziv sindromli homiladorlarda m-HEALTN texnologiyasi markerlarini ishlab chiqish(tibbiyot fanlari)" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.06.2020.Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-"a" uy.
Tel/faks: (71) 263-84-83; e-mail: info@uzaig.uz

**Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning *http://himoya.bimm.uz* platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn(masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.**

Toshkent shahri, Olmazor(oldingi Sobir Rahimov) tumanidagi 261-maktab tomonidan Mirzayeva(Sobirova) Muyassar Zokirovna nomiga 1996-yilda berilgan UZ I № 087578 raqamli GUVOHNOMA yo'qolgani sababli
**BEKOR QILINADI.**

"Ma'rifat" va "Учитель Узбекистана" gazetalari tahririyati, gazetaning faxriy xodimi Mahkam Qo'chqorovga turmush o'rtog'i
**Mohiniso QO'CHQOROVA**ning
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti jamoasi universitet rektori Shuhrat Sirojiddinovga akasi
**Anvar SIROJIDDINOV**ning
vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.



# Boshlang'ich ta'lim

## Obuna madaniyati nima?

Shu paytgacha o'qituvchilar turli gazeta va jurnallarga majburiy tarzda obuna qilinardi va bu hol norozilikka sabab bo'lar edi. Biroq endi vaziyat o'zgardi: majburiy obunaga qat'iyan chek qo'yildi.

O'qituvchilar uchun o'z yo'nalishidan kelib chiqqan holda sifatli axborot tanlash imkoniyati paydo bo'ldi. Shubhasiz, orangizda biror ta'lim yo'nalishidagi nashrlarga obuna bo'lish istagida yurgan, ammo rasmiylashtirish tartibi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchilar ham bo'lishi tabiiy. Chunki majburiylik obuna madaniyatini susaytirgandi.

**Obuna madaniyati, bu:**
**— o'z ustida tinimsiz ishlash!**
**— yangi axborotlarga ehtiyoj!**
**— turli manbalarga, jumladan, ommaviy axborot vositalariga mehrli munosabat!**
**— yaratgan yangiligi yoki boshqa fikrlari bo'lsa, muallif sifatida ishtirok etish!**
**OAVdan foydalanish uchun:**
**— obuna bo'lish tartibini bilish!**
**— obuna idoralaridan nashrni o'z vaqtida talab qilish!**

***Hurmatli mushtariy! 2022-yil uchun obuna bo'lishni xohlasangiz quyidagi tashkilotlarga murojaat qiling. O'zlari kelib, obunani rasmiylashtirishadi.***

***To'lovni naqd pul, plastik karta yordamida yoki pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishingiz mumkin. To'langanlik to'g'risida kvitansiya qo'lingizga tushishi bilan har oyda jurnalning yangi sonini olishingiz mumkin bo'ladi.***

### «O'zbekiston pochtasi» AJning korxonalari telefon raqamlari

| № | Hududiy filiallar | Telefon | № | Hududiy filiallar | Telefon |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Toshkent shahri filiali | (0371) 233-73-56 | 8 | Xorazm filiali | (0362) 228-51-71 |
| 2 | Andijon filiali | (0374) 223-26-24 | 9 | Surxondaryo filiali | (0595) 501-01-95 |
| 3 | Qoraqalpog'iston filiali | (0361) 222-14-43 | 10 | Toshkent filiali | (0371) 268-22-56 |
| 4 | Qashqadaryo filiali | (0375) 221-04-62 | 11 | Samarqand filiali | (0366) 229-49-27 229-51-16 |
| 5 | Jizzax pochta | (90) 538-02-69 | 12 | Farg'ona filiali | (0373) 244-47-79 |
| 6 | Namangan filiali | (0369) 233-03-67 | 13 | Sirdaryo filiali | (0595) 510-01-94 |
| 7 | Buxoro filiali | (0365) 223-48-93 | 14 | Navoiy filiali | (91) 335-66-62 |

### «Matbuot tarqatuvchi» AKning korxonalari telefon raqamlari

| № | Hududiy filiallar | Telefon | № | Hududiy filiallar | Telefon |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Toshkent shahri | (0371) 233-67-98 | 8 | Xorazm viloyati | (0362) 227-48-55 |
| 2 | Andijon viloyati | (0374) 223-82-13 | 9 | Surxondaryo viloyati | (0376) 221-91-18 |
| 3 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | (0361) 222-88-63 | 10 | Toshkent viloyati | (0371) 199-76-66 |
| 4 | Qashqadaryo viloyati | (0375) 225-40-27 | 11 | Samarqand viloyati | (0366) 234-22-53 |
| 5 | Jizzax viloyati | (0372) 222-40-01 | 12 | Farg'ona viloyati | (0373) 244-50-77 |
| 6 | Namangan viloyati | (0369) 239-10-88 | 13 | Sirdaryo viloyati | (0367) 225-11-22 225-11-44 |
| 7 | Buxoro viloyati | (0365) 221-56-90 | 14 | Navoiy viloyati | (0436) 223-26-86 |

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 802
Korxona va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 803

Manzil: 100000, Toshkent sh, Matbuotchilar-32.
Tel.: 71 233-72-28, 236-74-23.
E-mail: talim-uz@xtv.uz/Veb-sayt: bt-jurnal.uz

"Maktabda biologiya", "Maktabda kimyo" va "Maktabda geografiya" jurnallari barcha turdagi ta'lim muassasalaridagi biologiya, geografiya va kimyo fanlari o'qituvchilari, metodistlari, to'garak rahbarlariga ko'maklashish uchun chop etilayotgan nashrlardir.





Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:
O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4970 . Tiraji 6986.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

**TELEFONLAR:**
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416

"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

**MANZILIMIZ:**
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
**Navbatchi muharrir:** Humoyun Quvondiqov.
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

123456